

Journal of New Century Innovations

VOLUME

21

ISSUE-1



Journal of new
century innovations

Exact and natural sciences

Pedagogical
sciences

Social sciences
and humanities

Engineering and
Medical Sciences

AREAS

ISSN (p): 2181-3671
ISSN (e): 2181-368X



Google
Scholar



newjournal.org



**JOURNAL OF NEW CENTURY
INNOVATIONS**

VOLUME - 21 | ISSUE - 1

JANUARY- 2023



EKOLOGIYA BUZILISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

*Farg'ona viloyati Rishton tuman 2-sonli kasb-hunar maktabi
"Biologiya fani" o'qituvchisi Aminjonov Hayotjon Axrorjon o'g'li*

ANNOTATSIYA

Maqolada ekologiya, tabiat tushunchasi, u buzilishining inson salomatligiga ko'rsatadigan ta'siri, bugungi kundagi statistik ko'rsatkichlar, olib borilayotgan ishlar, rejalar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ekologiya, salomatlik, tabiat, chang, zarar.

KIRISH

Inson hech qachon tabiatsiz yashay olmaydi, chunki u tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Biz yashab turgan va bizni o'rab turgan olam xuddi onamiz kabi mehribon va jonkuyar. Quyoshning har zarrasida, tuproqning har jismida tabiatning bizga bo'lgan onadek mehribon taftini his qilamiz. O'zining har bir jabhasida inson uchun zarur bo'lgan minglab unsurlarni mujassam etgan. Ana shunday go'zal tabiatimiz bugungi kunga kelib qay ahvolga tushmoqda? Bunga kimlar sababchi? Buni qanday oldini olish mumkin?[1-10] Degan savollar bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylanmoqda. Ming afsuski inson tabiatga misli ko'rilmagan miqdorda tasir ko'rsatadi. Inson aql-zakovati orqali, mehnat faoliyati tufayli ta'sir qilishini hech bir narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. Aniqroq aytadigan bo'lsak mavjudotlar tabiatdan qanday bo'lsa, shunday foydalanib, unga sezilarsiz tasirini o'tkazadi. Insoniyat uni o'rab turgan barcha shart-sharoitlarga moslasha oladi, moslasha olmas, uni o'zi istaklariga moslashtiradi, natijada tabiat muvozanati buziladi, buzilgan muvozanat esa katta ta'lofatlarga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tirik mavjudotlarni o'rab turgan ekologik muxit, asosan, insoniyat tomonidan salbiy tomonga o'zgartirib yuborildi, buning asosiy sababi zavod-fabrikalar, transportlar va ulardan chiqayotgan chiqindilar [2-11].

Bu o'zgarishlar atrof-muhitni shu darajada o'zgartirdiki, barcha tirik mavjudotlar qatori inson salomatligiga ham o'z tasirini o'tkazdi.

XXI asr insoniyat faoliyatining har bir sohasida, ayniqsa, tibbiyotda buyuk kashfiyotlar qilib, milliardlab mablag'lar sarflanishiga qaramay, insonlar organizmiga kasalliklar xavf solishi va hoyotda bevaqt ko'z yumushlar ko'p uchraydi.

Biz atrof-muhitga va inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadigan atrof-muhitga ta'sirini tavsiflash bilan boshlaymiz. Bu yerda biz nafaqat o'simliklar va hayvonlarga

yetkazilgan zarar haqida gapiramiz, balki bu ta'sirlar odamlarga ham ta'sir qiladi. Odatda, qabul qilinadigan qarorlar atrof muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish, tabiiy muhitni himoya qilishdan ko'ra, inson salomatligini himoya qilish uchun ko'proq ahamiyatga ega.

Ushbu ta'sirlarning asosiy oqibatlari umuman sayyoramizning ifloslanishidir. Biz suv, tuproq, havoning ifloslanishini, ekotizimlarning yo'q qilinishini, yashash joylarining parchalanishini va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi kasalliklarning ko'payishiga, biologik xilma-xillikning yo'qolishiga va o'simlik va hayvonot dunyosida ham, odamlarda ham sog'liq muammolariga olib keladi [5-8].

Buyuk mutafakir bobomiz Abu ali ibn Sinoning hozirda ekologiya deb yuritilayotgan atrof-muhitning deyarli barcha omillari, ularga insonning, jonizotlarning ta'siri va nihoyat, bu omillarning inson va jonizotlarga aks ta'siri to'g'risidagi mashhur iboralarning krltirishning o'zi kifoya. "Chang bo'lmaganda inson 1000 yil yashagan bo'lar edi", yoki: "Havo toki muvozanatlangan va toza bo'lsa, uning(pnevma) begona qo'shimchalar qo'shilmasa, u salomatlik garovi bo'ladi, aks holda turli kasalliklarga sabab bo'ladi" [6-9]. Yashash joyi muhiti borasida esa "Tib qonunlari"da alohida ta'kidlab, shunday deyilgan: "Turar joy tanaga turlicha ta'sir qilishi mumkin: balan yoki past joyligi, tuproq tarkibi hamda xususiyati, suvning seroblighi yoki kamyoblighi, darxtilarning mo'llighi, qabriston yoki konlarga yaqinligi va boshqalar yashash joyi tanlanganda muhim ahamyatga ega". Bu fikrlar muhit to'grisida bo'lib, tibbiy ekologiyada tegishli ekanligi guvohi bo'lamiz.

Jahon statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining 10% qarilikdan, 20% baxtsiz hodisalar va janglardan, 70% esa kasalliklardan o'lmoqda. Shuningdek, bizning sog'lig'imizning atigi 10%i tibbiyotga, qolgan 90% asa o'zimizga va atrof muhit hodisalarga bog'liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunga kelib ekologik muammolar inson salomatligiga jiddiy tahdid tug'dirayotir. Global gumanitar forum ma'lumotiga ko'ra, sayyoramizda ro'y berayotgan iqlim o'zgarishi yiliga uch yuz ming insonning umriga zomin bo'lmoqda. Uch yuz million aholi uning salbiy ta'siri ostida hayot kechirmoqda. Bundan iqtisodiyotga ham jiddiy zarar

yetayotir. Bunday global muammolar Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Orol bo'yidagi noxush ekologik vaziyat, buning ta'sirida kelib chiqayotgan tabiiy tangliklar, cho'llanish muammosi bunga misoldir. Bundan tashqari yer yuzini ifloslanishning eng mudhish omillaridan biri bu nurlanishdir. Uni na ko'rib, na eshtib bo'ladi, na ta'mi, na hidi bor. Biroq uning ta'sirida inson organizimdagi sistrmalarning o'zaro bog'liqligi buzilib, tanani aqil va idrok bilan boshqaruvchi generator-miya esa so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan o'zgarishlarga duch kelmoqda. Natijada bu kichik miqdordagi nurlanishdan aholining ma'lum

guruhlari va ayniqsa homilador ayollar homilasiga, o'sish va rivojlanish jarayoni kechayotgan bolalar, immunizim susaygan qariyalar va sog'lig'i zaif insonlar aziyat chekmoqda. Nurlanish bizning organizmimizga qon va suyaklarga turli yo'llar (ovqat, suv va havo) bilan kirib butun inson organizmini shikaslantirib, uni bevaqt o'limiga sabab bo'lmoqda.

Nurlanishdan tashqari sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli chiqindilar, nitratlar va qishloq xo'jaligida ko'plab ishlatiladigan har xil zaharli qottilar (pestitsid) va mineral o'g'itlardi. Bu zarali moddalar ozuqa mahsulotlari orqali odam organizmiga tushib har xil kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ma'lumki bir mintaqada kasalliklarning tarqalishi shu joyda yashovchi aholi bilan atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq. Masalan, ko'lmak suvlar to'planib qolgan joylarda bezgak chivinining yashashi uchun qulay sharoit yaratiladi va shu shu joylarda bezgak kasalligining paydo bo'lish ehtimoli yuzaga krladi. Afrika uyqu kasaligining paydo bo'lishi uchun esa o'tloqzorlar bo'lishi kerak. Opistroxoz kasalligi daryo yoqalarida yashovchi kishilarda ko'p uchraydi, chunki bu kasallikni keltirib chiqaradigan chuvalchangning oraliq xo'jayini baliq bo'lib, kasallik odamga baliq go'shti orqali yuqadi. Bundan tashqari aholi orasida ko'p uchraydigan allrgik kasalliklarni ham misol qilib olishimiz mumkin [6-8].

Ko'plab epidemiologik kuzatuvlar atrof-muhitning kimyoviy ifloslanishi va aholining reproduktiv funksiyasining buzilishi o'rtasidagi bevosita sabab-oqibat bog'liqligini ko'rsatadi. Bu mehnat sharoitida ham - metallurgiya zavodlari ishchilarida, to'qimachilik sanoati, gaz va neftni qayta ishlash korxonalarida, laborantlar va jarroh ayollarda ham, atmosferasi, suv manbalari va tuprog'i bilan ifloslangan aholi punktlarida ham aniqlandi. kimyoviy birikmalar. Birinchi va ikkinchi holatda reproduktiv funktsiyaning buzilishi homiladorlikni to'xtatish, o'zo'zidan tushish, homiladorlik va tug'ish paytida asoratlar, tug'ma deformatsiyalar xavfining ortishi bilan namoyon bo'ldi [8-11]. Bir qator hollarda oltingugurt dioksidi, fosforik angidrid, qo'rg'oshin, nikel, temir va boshqalarning ko'payishi bilan homiladorlik patologiyasi o'rtasida ishonchli bog'liqlik o'rnatildi. atmosfera havosida [9-11].

Hozirgi kunda yurtimizda sanitariya-epidemiologiya muhitini barqarorlashtirish, tabiatga salbiy ta'sirlarni kamaytirish, ekologiya va gigiyena tadbirlarini uzviy ravishda tashkil etish tizimi shakllangani inson salomatligini asrash va yuqumli kasalliklar bo'yicha barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yangi ekologik sharoitlarning mavjudligi inson organizmida millonlab moslanish jaroyonlarni keltirib chiqarmoqda, demak inson organizmi har qanday tabiiy sharoitda o'zini tiklash sog'aytirishi va moslashish qobiliyatiga ega. Bizning vazifamiz esa o'zini o'zi sozlovchi va tiklovchi biosistemaga turli kasalliklardan o'zini himoya qilish uchun shar-sharoit yaratib berishdir. Aholi salomatligini mustahkamlash va kasalliklarning

oldini olishda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, ba'zi ekologik vaziyat o'ta tang ahvolda bo'lgan hududlarda tabiiy nazoratni yanada kuchaytirishimiz zarur.

Hozirgi vaqtda turli zavod va fabrikalarda 45 ming turga yaqin kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda va aholiga sotilmoqda, jahonbo'yicha 300 mln. tonnaga yaqin organik moddalar ishlabchiqarilib, ular yordamida milliondan ortiq buyumlartayyorlanmoqda. Lekin ishlab chiqarishda foydalanilayotgan ushbu kimyoviy moddalar ma'lum miqdorda havo,suv va oziq-ovqatlar orqali inson tanasiga ham kelib tushmoqdaki, buning natijasida turli xil yuqumli kasalliklar yuzaga kelmoqda. Chunki ayrim kimyoviy moddalar zaharlilik xususiyatiga ega bo'lsa, ayrimlari allergenlik,konserogenlik (rak kasalligini keltirib chiqarish xususiyati),mutagenlik (naslga ta'sir etish xususiyati) va teratogenlik(chala yoki mayib-majruh tug'ilishni yuzaga keltirishxususiyati), fibrogenlik (tanadagi to'qimalar birikmasining ajralishi) xususiyatlariga egadir. Bunday kimyoviymoddalarga, ayniqsa, og'ir metallar (qo'rg'oshin, kadmiy,simob), noorganik gazlar (oltingugurt ikki oksidi, is gazi,azot oksidi, ozon), kremniy ikki oksidi (DDT, xlorli vinil vaboshqalar) misol bo'lishi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalar alohida holda ham, aralashma holda ham insonsoq'lig'i uchun juda xavfli hisoblanadi. Keyingi yillarda saraton kasalligining ko'payishi, turli xil kasalliklarning yangi turlarini vujudga kelishi, asosan, kimyoning ta'siridandir.

Texnikaviy taraqqiyot davrida atmosfera havosining ifloslanishi Respublikamizning Olmaliq, Chirchiq, Farg'ona va Navoiy viloyatlarida, ayniqsa sezilarli darajada ortganligi hech kimga sir emas. Birgina Navoiy viloyati misolida oladigan bo'lsak, atmosfera havosining yuqori darajada ifloslanganligini kuzatish mumkin.Ikki yuz mingga yaqin

aholisi bo'lgan Navoiy shahrida havoni ifloslantiruvchi ko'plab sanoat korxonolari mavjud. Ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarida har yili 637,6 ming tonna zararli moddalar hosil bo'lib, shundan 97,2% i ushlab qolinadi. Navoiy issiqlik elektr stansiyasi korxonalarida gaz yoqishda hosil bo'ladigan azot oksidlarini tozalash inshootlarini loyilash ko'zda tutilgan, ammo ushbu moddalarning me'yorida yuqoriligi saqlanib qolmoqda. Viloyatda ekologik muvozanatni birlashtirish maqsadida "Navoiy viloyatining 2016-2022 yillarga mo'ljallangan atrof- muhitni muhofaza qilish" dasturi ishlab chiqilgan. Sanoat korxonolari bilan birga shaharda avtotransport vositalarining ko'payishi ham shahar havosiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda,sanoat korxonolari chiqindilarini kamaytirish uchun avvalambor hozirgi zamon talabiga mos keladigan ilg'or texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqindisiz texnologiyadan foydalanishni keng yo'lga qo'yishimiz lozim.. Zero,chiqindilar masalasi ekologiyadagi muhim muammolardan biri bo'lib,

ularni qayta ishlash yoki gigiyenik talablar bo'yicha ishlov berilsa nafaqat iqtisodiy jihatdan foyda ko'ramiz, balki yerni, havoni suvni, oziq – ovqat mahsulotlarining ifloslanishi oldi olinardi, kishilar sog'lig'ini muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega bo'ladi va kelajak avlod uchun ham tabiatimizni o'z musaffoligini saqlagan holda yetkazib bergan bo'lamiz.

REFERENCES

1. Biology (textbook for academic lyceums and professional colleges)
2. Zhumaeva, Sh., B. (2022). Эколого-флористический анализ альгофлоры водных объектов бухарской области. Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy (431-435ст).
3. Nazarov, A. (2021). Challenges to uzbekistan's secure and stable political development in the context of globalization. Journal on International Social Science, 1(1), 26-31.
4. Nazarov, A. (2021). Healthy Generation-The Basis Of A Healthy Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 409–413
5. Nazarov, A. (2021). The impact of the chemical industry on the environment. Eurasian journal of academic research 1(8), 145-148
6. Nazarov, A. (2018). The globalizing world: the conditions and prerequisites for political development through innovative politics and preventive democracy. Theoretical & Applied Science, (4), 9-12.
7. Kholliyev, A., Nazarova, F., & Norboyeva, N. (2021). Cotton resistance indicators in the conditions of water deficiency. Збірник наукових праць SCIENTIA.
8. Nazarova, F. (2021). The use of phenological observations in the determination of the main phases of the development of thin-fiber goose varieties in the conditions of bukhara region. Theoretical & applied SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 523-526.
9. Аминжонова, Ч. А., & Мавлянова, Д. А. (2020). Методика преподавания предмета “биология” в системе высшего медицинского образования. In методологические и организационные подходы в психологии и педагогике (pp. 8- 11).
10. Худойкулова, Н. И. (2018). Пути воспитания толерантности у молодежи. Наука, техника и образование, (11 (52)).

БУРЧАК ТЕЗЛАНИШ ДАТЧИГИ

ТОШКЕНТ ИРРИГАЦИЯ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ
МЕХАНИЗАЦИЯЛАШ МУҲАНДИСЛАРИ ИНСТИТУТИ
МИЛЛИЙ ТАДҚИҚОД УНИВЕРСИТЕТИ

“Электротехника ва мехатроника” кафедраси

70810502 – «Сув хужалигида Smart(интеллектуал) улчаш тизимлари ва
асбоблари» МУТАХАССИСЛИГИ

2-БОСҚИЧ МАГИСТРАНТИ ГАДОЙМУРОДОВ АРСЛОН

КИРИШ.

Бурчак тезланиш датчигининг конструкцияси таклиф қилинган. Назарий асослаш келтирилган, ўзгарткич функциясининг аналитик ифодаси олинган. Ўзгарткич функцияси чизиқли. Датчик генератор типли бўлиб, ташиқ электр манбанинг зарурати йўқ. Датчик конструкциясида оригинал лентали шарнир қўлланилган. Асосий ўзгартириш магнитоэлектр хусусиятда. Датчик амалда кенг қўлланилиши мумкин, масалан, айланувчи валларнинг айланиш тебранишларини ўлчаш учун.

Калит сўзлар: датчик, бурчак тезланиш, шарнир, инерцион масса, электр сигнал.

Механизмларнинг экспериментал изланишларида қатор ҳаракат параметрлари назорат қилинади, улар орасида кинематик занжирнинг алоҳида звеноларининг тезланиши муҳим ўрин тутади.


Илгариланма ва айланма звеноларнинг тезланишини ўлчашда бирламчи ўзгарткич сифатида эгилувчи элемент билан яхлит бўлган инерцияли массадан фойдаланилади. Инерцияли массанинг силжиши индуктив [1], сизим [2], автотебранишли [3] ва магнитоэлектрик [4] ўзгарткичлардан фойдаланиб қайд қилинади. Уларнинг орасида магнитоэлектрик ўзгарткичлар қатор афзалликлари билан характерланади, хусусан бундай иккиламчи ўзгарткичли датчик генераторли типга тегишли бўлиб, алоҳида электр таъминоти талаб қилмайди.

Мавжуд бурчак тезланиш датчиклар конструкциясининг тахлили кўрсатадики, уларда иккита камчилик мавжуд:

– ўзгарткичлар характеристикаларининг ноқизиқлилиги;

– ўзгартириш функциясига бирламчи ўзгарткичнинг резонанс частотаси таъсир кўрсатади.

Мавжуд датчиклар конструкциясининг кўрсатиб ўтилган камчиликлари ўлчов аниқлигини чегаралайди.




1-расм. Переходниги ечиб олинган холда юқоридан кўриниши

Мавжуд конструкцияларнинг кўрсатиб ўтилган камчиликларидан холи бўлган бурчак тезланиш датчигини яратиш бўйича асосий техник ечимлар таклиф қиламиз. Датчикнинг монтажи учун асос бўлиб корпус 1 хизмат қилади. Корпус трубкали конструкциядан тайёрланган бўлиб, материалнинг четларидаги қисми олиб ташланиб, сектор кўринишида қолдирилган:

- юқориги 2 ва пастки 3 (бу ерда чизмага қараб ориентация олинади);
- эгилувчи элемент секторлари; юқориги сектор 4;
- иккиламчи ўзгарткич сектори, пастки сектор 5 ёрдамчи функцияни бажаради, хусусан унинг ҳисобига эгилувчи элемент маҳкамланиш жойларига яқинлашиш ва хавфсиз хизмат кўрсатиш имконияти бўлади.

Инерцион масса, уни тебранувчи система билан ўхшашиликдаги баланс деб атаймиз, вал 6 ва қанот 7 билан ҳосил қилинган. Валнинг ўрта қисмида цилиндрик базавий белбоғ ва қанотни маҳкамлаш учун развальцовка усули билан қирқилган расточка бажарилган. Вал четлари квадрат кесимли бўлиб, унга эгилувчи элементни маҳкамлаш учун резьбали тешиклар тайёрланган. Баланснинг қаноти тасма шаклида бўлиб, листли магнитўтказгичли материалдан тайёрланганли. Қанотнинг бир четида магнитли система ҳосил қилинган, а иккинчи томонида эса унга мос оғирлик 8 ўрнатилган (противо-вес). Магнит системага магнитўтказгич 9 ва ўқий магнитланувчи тўртта доимий магнит 10 киради, бунда иккита магнит қанотда 7 маҳкамланган (елимланган), а бошқа иккитаси эса икки тирқиш ҳосил қилиб магнит ўтказгичда 9 ўрнатилган. Магнитлар шундай жойлаштириладики, магнит тирқишларда (зазорларда) магнит индукция векторлари турли йўналишида бўлади. Таъкидлаш жоизки, қанот 7 ва магнитўтказгич 9 материалнинг нисбий магнит сингдирувчанлигига талаблар минимал, чунки датчик ишлаб турганида тирқишларда (зазор) магнит оқимлари йўналишлари ўзгармайди. Доимий магнитлар материали сифатида платинаксдан (ПлК76 ёки ПлК78) фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади. Магнитўтказгич 9 ва унга мос оғирлик 8 қанотга 7 заклепкалар билан маҳкамланган.



2-расм. 1 расмни А-А қирқими

Эластик звено, четларида маҳкамлаш учун тешиклари бўлган, тўртта текис пружиналардан 11 иборат. Ҳар бир пружиналар жуфтлиги бир текисликда жойлашган ва бир томонидан винтлар 12 ёрдамида валнинг 6 квадрат шаклли думи учиди маҳкамланган, бошқа томонидан эса винтлар 13

ёрдамида 2 ва 3 секторларнинг мос қирраларига маҳкамланган. Пружиналар жуфтлиги жойлашишида ўзаро 90° ҳосил қилади. Умуман олганда пружиналар тасмали эгилувчи (эластик) шарнир ҳосил қилган. Иккиламчи ўзгарткич таркибига, юқорида келтирилган магнит системадан таиқари, текис каркассиз бифиляр (иккита симга ўралган) электромагнит галтак 14 қиритилган. Галтак О-кўринишли шаклга эга бўлиб, магнит тирқишлар (зазорлар) зонасида жойлашган ва баланс айланиши ўқиға нисбатан радиал бўлган иккита бўлмадан иборат, а боиқа бўлмалар технологик нуқтаи назаридан бажарилади. Унинг тайёрланишининг бир варианти қуйидагича бўлади. Галтакни цилиндрик карксга ўралади, бунда ўтказгич сим клей (лак) билан қопланади. Кейин галтак технологик каркаسدан «нам» холатида ечиб олинади ва талаб қилинган шаклга туширилади ва қурилади. Галтак қуриганидан кейин яхлит қаттиқ детал холиға келади. Галтакни тайёрлаишда чулғам сими сифатида лак изоляцияли мис сим, масалан ПЭЛ ёки ПЭВ маркали сим олиниши мумкин. Электр галтак 4 сектор поғонасида планкалар 15 ва винтлар 16 воситасида маҳкамланади.

Датчикнинг ишчи ҳажми, корпусига 1 винтлар 19, 20 ёрдамида маҳкамланадиган, иккита коса шаклидаги деталлар билан ёпилган. Юқориги деталь 17 - улагич – датчикни изланиши объекти билан уланиши учун хизмат қилади. Пастки деталь 18 – ток олиши қопқаси – типавий халқали ток олгични 20 маҳкамлаш учун мўлжалланади. Токолгич (Токосъемник) қўзғалмас щеткалар билан контактланувчи таиқи электр ўтказувчи халқаси бўлган электризоляцияли втулкадан иборат бўлади. Токолгич халқасининг ички сирти билан электр галтакнинг 14 W_n ва W_d секциялари билан электрик боғланиши монтаж сими воситасида, масалан корпус 1 ичида елимланган МГШВ- 0,12 симида, амалға оширилади. Монтаж симини ва галтак ўралган симлари учини пайвандлаш учун контакт таянчлари 22 ва планка 15 қўлланилади.

Датчикнинг узатиши функциясини аниқлаймиз. Реал конструкцияда текис пружиналар массаси баланс массасидан анча кам бўлади, шу сабабли пружиналарнинг инерциясини ҳисобға олмаймиз.

Инерцияли жисм ва эластик осмадан иборат бирламчи ўзгарткич учун моментлар қуйидаги характерли бўлади:

$$(1) \quad \begin{aligned} M_g &= D\varphi; \\ M_m &= h\dot{\varphi}, \end{aligned}$$

бу ерда: M_g – пружинанинг тикланувчи моменти;

M_m – ииқаланиши моменти (ҳавонинг қаршилиги);

D – пружиналарнинг қаттиқлиги ;
 h – юмшоқ ишқаланиш коэффициентини;
 – мос равишда баланснинг бурчакли оғиши ва бурчак тезлиги,

Бирламчи ўзгарткичга ўлчанаётган тезланишдан юзага келган момент таъсир кўрсатади:

$$M(t) = I E(t), \quad (2)$$

бу ерда: I – баланснинг инерция моменти;

$E(t)$ – ўлчанаётган тезланиш.

Бу момент (2) таъсирида баланснинг ҳаракат тенгламаси қуйидаги кўринишда бўлади:

$$I\ddot{\varphi} + h\dot{\varphi} + D\varphi = M(t). \quad (3)$$

Бу тенгламани (3) бошқача ёзишимиз мумкин:

$$\ddot{\varphi} + 2\beta\dot{\varphi} + \omega_0^2 = M(t)/I, \quad (4)$$

бу ерда: $\omega_0 = \sqrt{\frac{D}{I}}$ баланс-эластик звено системасининг циклик (доиравий) частотаси;

$$\beta = \frac{h}{2I} \text{ – сўниш коэффициенти.}$$

$M(t)$ момент таъсирида баланснинг ҳаракатланиш характери сўниш коэффициенти β билан аниқланади.

Агар кам сўниш коэффициентида ($\beta < \omega_0$) системага тезланиш сакраши таъсир этса ε_1 , сўнувчи тебранувчи жараёнга эга бўламиз. Унинг частотаси қуйидаги кўринишда бўлади:

$$\omega_u = \sqrt{\omega_0^2 + \beta^2};$$

$$\varphi = \frac{I}{D} \varepsilon_1 e^{-\beta t} \sin(\omega_u t - \psi). \quad (5)$$


Умумий ҳолда функция $\varepsilon(t)$ ихтиёрий кўринишда бўлиши мумкин. Бу функцияни гармоник Фурье қаторига ёйиши мумкин:

$$\varepsilon(t) = a_0 + \sum_{n=1}^{\infty} (a_n \cos n\Omega t + b_n \sin n\Omega t). \quad (6)$$

Қатордан кўринадики, функциянинг Фурье қаторига ёйилмаси доимий ташиқил этувчисидан a_0 ташиқари, карралик частотали гармоникаларга хам эга бўлади:

$$\lambda_n(t) = a_n \cos n\Omega t + b_n \sin n\Omega t = A_{mn} \cos(n\Omega t - \Psi_n), \quad (7)$$

бу ерда: $A_{mn} = \sqrt{a_n^2 + b_n^2}; \operatorname{tg} \Psi_n = b_n / a_n.$



3-р. Пружиналарнинг маҳкамланиши. 4-р. Ҳисобий схема.

Гармоникаларнинг бирортасининг (частотаси) $n\Omega$ датчикнинг хусусий частотаси билан тўғри келса резонанс пайдо бўлади, натижада узатиш функциясининг деформациясига олиб келади. Бу ходисани олдини олиш учун гатак 14 нинг демпферловчи секциясидаги (W_d) доимий токни ўзгартириш билан сўниш коэффициентини оширилади.

$$\beta = \omega_0 \quad (8)$$

$\beta = \omega_0$ бўлганида датчикнинг тебранувчи системаси аperiодик бўлади.

Агар $\varepsilon(t) = \varepsilon_0 t$, бўлса қуйидагича ёзишимиз мумкин:

$$\varphi = \frac{I}{D} \varepsilon(t) = \frac{I}{D} \varepsilon_0 t. \quad (9)$$

Баланснинг бурчак тезлиги қуйидагини ташиқил қилади:

$$\dot{\varphi} = \frac{I}{D} \varepsilon_0. \quad (10)$$

Баланснинг бурилиш бурчагининг ишчи диапозони оралигида $-\varphi_{\max}$ дан $+\varphi_{\max}$ гача магнит тирқишлар (азорлар) кесим залтак кенлиги оралигидан ташиқарига чиқмайди. (10) ифодадаги бурчак тезлигида W_i секциясида индукцияланган ЭЮК катталиги қуйидагича бўлади:

$$e_u = \frac{IBd_m^2 HK_3}{Dd} \dot{\varphi}, \quad (11)$$

бу ерда: B – магнит тирқишлардаги (азорлар) индукция;

d_m – магнитлар диаметри;

H – залтак қалинлиги;

d – залтакка ўралган чулғам симининг диаметри;

K_3 – залтакнинг тўлдириш коэффициенти.

(11) ифодада иккала W_i ва W_d секциялар бир хил диаметрли симдан ўралган ва ўтказгичларнинг иккала бўлмасидаги ЭЮКлар икки магнит тирқишлар кенлигида пайдо бўлади деб ҳисобланган.

Ихтиёрий ε системаси учун (10), (11) формулаларни ҳисобга олган холда (8) шарт бўйича датчикнинг узатиш функциясини қуйидаги кўринишида оламиз:

$$\varepsilon = \frac{dD^2}{BI^2 d_m^2 HK_3} e_u, \quad (12)$$

ёки конкрет бажарилган датчик учун ёзишимиз мумкин:

$$\varepsilon = Ke_u,$$

яъни ўлчанаётган тезланиш ε залтакнинг $14 W_i$ секциясидаги ЭЮК e_u га пропорционал ва қутби ўлчанаётган тезланиш ишорасига мос келади. Ўлчаи диапозонининг чегаравий қийматлари геометрик ўлчамлари билан аниқланади – 4-расм – $+\varepsilon_{\max}$ (тезланиш) қиймати баланснинг φ_{\max} бурилиш бурчагига мос

келади, $-\varphi_{\max}$ (секинланиш) қиймати баланснинг $-\varphi_{\max}$ бурилиш бурчагига мос келади. Рухсат этилган бурилиш бурчаги қуйидагича бўлади:

$$\varphi_{\text{доп}} = (b - d_m) / R_6. \quad (13)$$

Ўлчаи диапазоннинг пастки чегаравий қийматлари еи ЭЮК сигналинн қайд қилувчи иккиламчи асбобнинг сезгирлиги билан аниқланади. Бурчак тезланиши датчиги қуйидагича ишлайди. Ўтказгич 17 ёрдамида (орқали) датчик изланиш объектига ўрнатилади, токолгич щеткалари унинг халқаларига келтирилади ва уларни иккиламчи асбобга уланади. Кейин эксперимент ўтказилади. Бурчак тезланиши пайдо бўлганида датчик баланси маълум даражада бурилади, натижада галтакнинг 14 Wi секциясида еи ЭЮК пайдо бўлади. Иккиламчи асбоб (12) формула бўйича еи қиймати га ишлов беради. Шундай қилиб, таклиф этилаётган бурчак тезланиш датчиги ўзгарткичи чизиқли характеристикали бўлиб, керакли аниқикда объект параметрини назорат қилаиб туради. Датчик конструкцияси оддий ва технологик. Датчик бурчак тезланишларининг ҳам мусбат ўзгаришларини ҳам манфий ўзгаришларини назорат қила олади.

Адабиётлар рўйхати.

1. Тезлаштириш сенсори. Патент РУ 2247992 ИПС Г01П 15/12 // О.Т. Федоркин. 10.03.2005 йилда чоп етилган.
2. Инертиал ахборотни конвертор. Патент РУ 2199755 ИПС Г01П 15/13, 9/02 / В.И. Базҳенов, К.А. Баҳонин, В.П. Будкин ва бошқалар. Чоп етилган 27.02.2003. Техник фан 183
3. Акселерометр. Патент РУ 2481588 ИПС Г01П 15/13 / В.В. Кулешов, В.В. Савелийев, Д.В. Кулкшов. 2013-йил 10-майда чоп етилган.
4. Бурилиш тебранишини ўзгартирувчи. Патент РУ 142033 ИПС Г01П 3/04 / И.А. Башкирова, Л.Е. Каткова, Л.Н. Шарйгин. Чоп етилган 20.06.2014

INGLIZ TILI DARSLARIDA OG'ZAKI SO'ZLASHUV USLUBINI KUCHAYTIRISH

Yaqubova Gullola Sharobiddinovna

Andijon mashinasozlik instituti, akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim va tarbiya tizimida ingliz tili darslaridan foydalanish tajribasini umumlashtirmasdan mumkin emas. Ingliz tili, uning rivojlanish tarixi, xalq madaniyati va kundalik hayotini o'rganish nafaqat talabalarning ingliz tilini o'rganishga qaratilgan faoliyati, balki chet tilini o'qitishni ta'minlaydigan va maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini aniq hayotiy material bo'yicha rivojlantirish shartlaridan biri sifatida qaralishi kerak. Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitish jarayonida o'spirinlarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: Og'zaki nutq, homeworks, lug'at, so'zlashuv uslubi, savol – javob, bilim, ko'nikma, malaka.

Mustaqil ishlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash talabalarni ijodiy ishlarga o'rgatadi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, ularni kasbiy faoliyat tizimida qo'llash uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratadi, og'zaki va yozma nutq qobiliyatini yaxshilaydi, fikrlarni, his-tuyg'ular va his-tuyg'ularni ifodalashga ustunlik beradi, shuningdek fikr yuritish qobiliyatiga ega. Har xil vazifalardan qanchalik ko'p foydalanilsa, natijalar shunchalik samarali bo'ladi.

G'ayrioddiy tarzda qurilgan matn, dialog yoki monolog bilan ishlash.

O'quvchiarni ingliz tilidan og'zaki nutqini o'stirish bola maktabga ilk qadam qo'ygan kundan, yani savod o'rgatish davridan boshlanadi. Nutq ko'nikmalari izchil va muntazam olib boriladigan amaliy ishlar natijasida namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi ingliz tili darsidan grammatik tushun cha doir har bir mashg'ulotda o'quvchilarning nutq malakasini o'stirishga e'tibor berish zarur.

Bu ko'nikmaga erishish uchun, avvalo, nutqning ixcham, sodda, ravon va mazmundor bo'lishini ta'minlash lozim.

Shunday ekan, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish ingliz tili darsining asosiy vazifasi sanaladi

Boshlang'ich sinflar ingliz tilini o'qitish metodikasida bog'lanishli nutqdan mashq turlari amaliy ko'rinishga ega bo'lib, ular nazariyasiz, aniq reja asosida o'tkzilmogda yani:

- aniq savolga ravon mukammal javob
- lug'atni faollashtiradigan har xil topshiriqli mashqlar
- uzatish, rasm yoki berilgan mavzu bo'yich o'quvchining ijodiy hikoyasi

Bulardan tashqari, pedtexnologiya asosidagi nutqiy mashqlardan foydalanish bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va ularning nutqini yangi lug'at bilan boyitadi. Boshlang'ich ta'limda ingliz tilidan berilgan bilimlarni o'quvchilar qanday o'zlashtirishini muntazam tekshirib borish didaktik talablardan biri hisoblanadi. Shunday qilib, o'quvchilar bir yilda davomida o'ndan ortiq inglizcha she'rlarni yodlay olar ekan.

Shuningdek ular o'qituvchi tomonidan berilgan turli xildagi savollarga tez va aniq javob bera olyapti. Ya'ni o'qituvchi savollari quyidagicha:

Teacher: Are you ready for the lesson?

Pupils: Yes, we are ready.

Teacher: How old are you David?

David: I am 8.

Teacher: Behzod, where do you live?

Behzod: I live in Kokand.

O'qituvchi sinf xonasi ichidagi ko'rgazmalardan ham unumli foydalanadi.

How many fruits here?

Pupils: 6

Teacher: What is it?

Pupils: It is fish, it is frog, crocodile, monkey, snake.

Teacher: What can you draw?

Charos: I can draw apple.

Jahongir: I can draw a strawberry.

Milana: I can draw a flower.

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri - o'z kasbiga sadoqatliligi, o'z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi, chunki maktabda ta'lim tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchilarga bog'liq. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi, bolalarning shu predmetga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qituvchi o'z kasbini qanchalik ustasi bo'lsa, uni obro'si ham shunchalik yuqori bo'ladi. O'quvchilar o'qituvching o'z bilimlarini bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki, uning fidoyiligini ham taqdirlashadi.

O'qituvchining yuksak madaniyati, bilim doirasi, uning ta'lim – tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan muhim talablardan yana biri bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan iboratdir. Bolani sevgan, butun kuch va bilimini bolalarning kelajagi, ularni Vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan insongina

haqiqiy o'qituvchi bo'la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o'qituvchilik kasbiga loqayd inson haqiqiy o'qituvchi bo'la olmaydi.

Xulosa:

Ushbu masala bo'yicha uslubiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, o'qitish o'qituvchi va talabalar o'rtasida faol o'zaro bog'liqlik bo'lib, u bir tomonlama bo'lishi mumkin emas, bu o'qituvchiga o'quv jarayoni qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishiga bog'liq.

Mahalliy maktabda chet tillarini o'qitish sohasidagi yangilanish jarayonlari o'qituvchilarga fanni o'qitish kurslari, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv qo'llanmalarini qurish modelini mustaqil tanlash huquqi va imkoniyati berilgan vaziyatni yaratmoqda. Bunday vaziyatda aynan o'qituvchi turli metodik tizimlardan chet tillarini o'qitishning pedagogik voqeliklari va o'ziga xos shartlariga ko'proq mos keladiganini tanlashi kerak.

Ko'rinib turibdiki, har bir o'qituvchi grammatikani o'qitishda ish uslublari va uslublarini tanlashda shaxsiy tajribasiga muvofiq ravishda rahbarlik qiladi. Ammo, eksperimental va amaliy ish natijalariga asoslanib, kommunikativ, induktiv, deduktiv usullar doirasida turli xil texnikalardan foydalanish ijobiy natija beradi va shubhasiz grammatikani o'qitish samaradorligini oshirishga yordam beradi, deb ta'kidlashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R. P. Milrud, I. R. Maksimova Chet tillarni kommunikativ o'qitishning zamonaviy kontseptual tamoyillari. IYaS.- 2000.- №4 - S.9-15, №5 - S.17-22.
2. R.P.Milrud Tilning kommunikativligi va suhbat grammatikasini o'rgatish (soddalashtirilgan jumlar). // IYASh.- 2002.- № 2.- B.15-21.
3. Mirolyubov A.A. Grammatik-tarjima usuli. // IYaSh.-2002.-№4.-S.27-28.
4. Nikolenko T.G. Ingliz tili grammatikasi testlari.- M.: Rolf, 1997.- 160s.
5. E.I.Passov Chet tillarni o'qitish metodikasi asoslari - M.: "Rus tili", 1977 y.
6. Pospelova M.D. Ingliz tili darslarida so'roq tuzilmalarini o'qitish. // IYaSh.-2002.- № 5.- S.33-36.
7. E.I.Passov O'rta maktabda chet tili darsi - M.: "Ta'lim", 1988 y.
8. Rogova G.V., Vereshchagina I.N. O'rta maktabda ingliz tilini dastlabki bosqichda o'qitish metodikasi: O'qituvchi uchun qo'llanma.- M.: Ta'lim, 1988.- 224s.
9. Selevko G.K. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: O'quv qo'llanma.- M.: Xalq ta'limi, 1998.-256s.
10. Chet tillar grammatikasini o'qitishning zamonaviy muammolari. // IYaSh.- 2000.- № 5.- S.22-26

USING INFORMAL ASSESSMENTS FOR ENGLISH LANGUAGE LEARNERS

Haitova A'lohon Ilyosbek qizi

Andijon mashinasozlik instituti, Akademik litseyi Ingliz tili fani o'qituvchisi.

Informal assessments (also called authentic or alternative) allow teachers to track the ongoing progress of their students regularly and often. While standardized tests measure students at a particular point in the year, ongoing assessments provide continual snapshots of where students are throughout the school year. By using informal assessments, teachers can target students' specific problem areas, adapt instruction, and intervene earlier rather than later.

Ongoing assessments are particularly important for English language learners (ELLs). Standardized tests in English do not usually reflect ELLs' true content knowledge or abilities. Yet informal assessments can provide a more well-rounded picture of their skills, abilities, and ongoing progress.

There are two commonly used informal methods: performance-based assessment and portfolio assessment. Both methods utilize typical classroom activities to measure progress toward curricular goals and objectives. These activities can be monitored and recorded by teacher observation and student self-assessment. [1: 48]

Performance-based assessments are based on classroom instruction and everyday tasks. You can use performance-based assessments to assess ELLs' language proficiency and academic achievement through oral reports, presentations, demonstrations, written assignments, and portfolios.

These assessments can include both processes (e.g., several drafts of a writing sample) and products (e.g., team projects). You can use scoring rubrics and observation checklists to evaluate and grade your students. These assessment tools can help document your ELLs' growth over a period of time.

When using performance-based assessments, it is important to establish clear and fair criteria from the beginning. It might be helpful to develop these criteria in conjunction with other teachers or specialists at your school. Performance-based assessments promote a wide range of responses and do not typically produce one single, correct answer. Therefore, evaluation of student performances and products must be based on teacher judgment, using the criteria specified for each task.

You can also develop assessment (and instructional) activities that are geared to your ELLs' current level of English proficiency. Performance-based assessment activities can concentrate on oral communication and/or reading. Here are examples of commonly-used activity types designed for assessing speaking or reading:

Reading with partners/Retelling stories/Role playing/Giving descriptions or instructions using visual or written prompts/Oral reporting to the whole class/Telling a story by using a sequence of three or more pictures/Completing dialogue or conversation through written prompts/Debating, either one-on-one or taking turns in small groups/Brainstorming/Completing incomplete stories/Playing games.

When using performance-based assessments with beginner and intermediate English proficiency level ELLs, it is best to assess no more than three items at a time. For example, in one role play activity, you might assess ELLs' abilities to:

1. Respond to "what" and "where" questions
2. Ask for or respond to clarification
3. Read addresses or telephone numbers [2: 68]

Portfolio assessment is practical ways of assessing student work throughout the entire year. With this method, you can systematically collect descriptive records of a variety of student work over time that reflects growth toward the achievement of specific curricular objectives. Portfolio include information, sample work, and evaluations that serve as indicators for student performance. By documenting student performance over time, portfolios are a better way to crosscheck student progress than just one measure alone. Portfolios can include:

- Samples of written student work, such as stories, completed forms, exercise sheets, and descriptions
- Drawings representing student content knowledge and proficiencies
- Tapes of oral work, such as role-playing, presentations, or an oral account of a trip
- Teacher descriptions of student accomplishments, such as performance on oral tasks
- Formal test data, checklists, and rating sheets

Checklists or summary sheets of tasks and performances in the student's portfolio can help you make instructional decisions and report consistently and reliably. Checklists can also help you collect the same kind of data for each student. In this way you can assess both the progress of one student and of the class as a whole.

In addition, here are a few ways that your ELLs can have an active role in the portfolio process:

- Students can select samples of their work and reflect on their own growth over time
- You can meet with ELLs to develop their goals and standards, such as with this sample writing criteria chart.
- Together with students, you can set tangible, realistic improvement goals for future projects.
- Students – as a class, in groups, or individually – can create their own rubrics.

ELLs need to learn grade level academic content even though they are still in the process of learning English. Even if ELLs are at the beginning or intermediate stages of English language development, you can still use their thinking ability and challenge them with content knowledge activities. ELLs need your help to exercise their critical thinking skills – such as knowledge, comprehension, application, analysis, synthesis, and evaluation – in order to succeed in school during all stages of English language development.

It is possible to assess ELLs' understanding of math, science, social studies, and other content areas somewhat independently of their level of English proficiency. The following assessment techniques can help you adapt assessments to reduce English language difficulties while you assess ELLs' actual content knowledge. These techniques can be used separately or simultaneously as needed.

- Scaffolding assessments allow ELLs to demonstrate their content knowledge through exhibits or projects, drawings, and graphic organizers. Consider giving ELLs extra time to complete these tasks, or to give short responses.

- Differentiated scoring scores content knowledge separately from language proficiency. To score content knowledge, look at how well ELLs understand key concepts, how accurate their responses are, and how well they demonstrate the processes they use to come up with responses.

It is important to note that if students are being instructed in content in one language (e.g., English), they should not be assessed on that content in another language, even if it is their native language.

Used literature:

1. Eastern Stream Center on Resources and Training (ESCORT), 2003.
2. They don't speak English. Starter Kit for Primary Teachers. Oneonta, NY: State University College.
3. Stefanakis E. Whose judgment counts? Assessing bilingual children, K-3. Portsmouth, NH: Heinemann, 1998

INGLIZ TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY USULLAR VA METODLAR.

Isamitdinova Gulchehra Komiljonovna

Andijon mashinasozlik instituti, akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchisi.

Annotatsiya. Maqolada ingliz tili darslarida zamonaviy usullar va metodlarni qo'llash haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, o'quvchi, metod, usul, vosita, o'quv material.

O'qituvchining o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarishdagi o'rgatuvchi faoliyati jarayonida nutq, faoliyatining barcha turlari buyicha ko'nikma va malakalar shakllantirishga yo'naltirigan turli tuman metodlar, usullar, vositalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. SHunday ekan, o'rgatish va o'rganish metodlari, usullari va vositalari, tushunchalari haqida batafsilroq, to'xtalishimizga to'g'ri keladi.

CHet tillar o'rgatishning rivojlanish bosqichlarida turli metodlar qullanilgan. Jumladan, quyidagi o'rgatish metodlari haqida fikrlar bildirilganligini ko'ramiz: 1. Grammatik-tarjima metodi; 2. Leksik-tarjima metodi; 3. To'g'ri metod; 4. Pal'mer metodi; 4. Uest metodi; 5. Audio-lingval metod; 6. Proektlab o'qitish metodi va x, k. Bu metodlarning vujudga kelishiga, shubhasiz, pedagogika, psixologiya, shaxs psixologiyasi, lingvistika, psixolingvistika fanlarining rivojlanishi va ta'siri katta bo'ladi. O'rgatish metodlarining bunday turli-tuman tasniflanishida o'rgatish metodlari, usullari, tamoyillari o'zaro aralashtirilib yuborilgan.

Tushuntirish metodi. Tushuntirish metodi ta'lim jarayonida eng keng qo'llaniladigan metodlardan biri xisoblanib, o'quvchi o'quv dasturida belgilangan fonetik, leksik, grammatik materialni og'zaki usulda o'quvchilarga takdim qiladi. O'qituvchi xilma-xil ko'rgazmali qurollardan, ta'limning texnika vositalaridan foydalangan holda o'quv materialining mazmunini bayon qiladi, bu orqali o'quvchilarda dastlabki fonetik, leksik, grammatik ko'nikmalarni shakllantiradi va bu ko'nikmalarni amalda qo'llash yullarini ko'rsatadi. Bu metod o'quv materialini mantiqiy izchillikda bayon qilish, turli ma'lumotlardan foydalanish, fanlararo bog'liklikni ta'minlash, o'zbek va fransuz tillarini qiyoslab tushuntirish imkoniyatini beradi. Bu metodning samarador bo'lishligi o'qituvchining metodik maxoratiga, ya'ni o'quv materialini qiziqarli bayon qila olishiga, nutqining jozibadorligiga va o'ziga jalb qila olishligiga, ifoda usulining kundaligiga, mantikiyligiga va obrazliliga bog'liq, Tushuntirish metodi o'qituvchidan o'quvchilarning doimiy ravimda barqaror diqqatlarini saqlab turishni, o'quv materialiga nisbatan munosabat uyg'ota olishni va shu jarayonda uni idrok qilish va tushunish, xotirada saqlash yullaridan, usullaridan foydalanishni talab qiladi. Bu juda ham murakkab jarayon bo'lib, unda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini

faollashtiradigan, xotiralarini rivojlantiradigan usullardan foydalanish orqaligina erishish mumkin. Tushuntirish evristik suhbat, materialni muammoli bayon qilish, ona tili bilan taqqoslash orqali ham tashkil qilinishi mumkin. Tushuntirishga ajratiladigan vakt o'quv materialining oson-qiyinligiga, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, ta'lim bosqichiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Ma'lumot olish tinglab tushunish va o'qish orqali amalga oshsa, ma'lumot berish gapirish va fikrni yozma bayon qilish orqali amalga oshadi. Nutq faoliyati shakli 2 ta: og'zaki va yozma nutq. Xozir ingliz tilini o'rgatishda tarjima (qilish) ham faoliyat hisoblanadi.

Og'zaki nutqni o'rgatish – tinglab tushunish va gapirishni o'rganishni o'z ichiga oladi. Ular ajralmas qismlardir. Ularni bir – biridan ajratib o'rgatish qiyin, xatto mumkin emas desak ham bo'ladi. Og'zaki nutqning nutq faoliyatimizda muhimligi hammamizga ayon. Og'zaki nutq, nutqni tinglab tushunish va gapirish shakllarida bo'lishi mumkin. YOzma nutqni o'rgatishga esa o'qish va yozuvni o'rgatish kiradi. Tinglab tushunish ham nutq faoliyatining turidir. U retseptiv nutq faoliyatiga kiradi. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar va talabalarda tinglab tushunish gapirishga qaraganda kam taraqqiy etgan. O'quvchi o'qiganda, ko'rganda tinglab tushunishga qaraganda olti marta ko'p ma'lumot olarkan, sababi uni ustida kam ishlaganidadir, murakkabligidir. Tinglab tushunish boshqa nutq faoliyatlariga ham yordam beradi. U gapirishni ajralmas qismidir. Tinglab tushunish bilan gapirish ikkalasi og'zaki nutqni tashkil qiladi. U gapirishni bir qismidir. Tajribalar ko'rsatadiki, tinglab tushunishni rivojlanganiga qarab, gapirish ham rivojlanadi, o'quvchi, ayniqsa, dialogda yaxshi qatnasha oladi.

Masalan: Ingliz tilidagi unli tovushning kisha chuzaqligi, so'z ohiridagi undosh tovushning jarangli-jarangsizlashuvida yuksak taqribiylikka intilish zarurdir, aks xolda mazmunga putur etadi.

Tinglab tushunishning eng asosiy maqsadi, vazifasi, tanish til materillari asosida tuzilgan notanish mazmunli matni, nutqni tinglab tushunishdir.

CHet tili o'rgatishning muham metodlaridan biri ko'zatish metodi bo'lib, u o'quvchilarda tildagi fonetik, leksik, grammatik xodisalar haqida ongli tasavvur va malakalar xosil qilishni, ularni amalda kullay olishni ko'zda tutadi. Ko'zatish o'quvchilar tomonidan yangi mavzu tushuntirilayotganda, sinfda, uyda, mustaqil ishlarni bajarayotganida amalga oshiriladi. Kuzatish o'quvchidan faol faoliyat talab qiladi. O'quvchilar til materiali tushuntirilayottanida yoki mustaqil ishlayotganlarida uni taxlil kilishlari, mantiqiy xulosalarga kelishlari, fikrlashlari, ona tili bilan qiyoslashlari lozim.

Malakalarni amaliyotda qo'llash vazifasi an'anaviy chet tili o'qitish metodikasida didaktik uyinlar uynatish (boshlang'ich sinflarda), turli mavzularda erkin suhbatlar uyushtirish, sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish, internatsional do'stlik klublari ishida ishtirok etish, xorijiy mexmonlar bilan uchrashuvlar tashkil krish,

xorijiy o'quvchilar bilan xat yozishuvlar tashkil qilish kabi shakllarda uyushtiriladi. Keyingi yillarda ilgari surilgan muammoli o'qitish, proekt tuzish orqali nutq, vaziyatlari yaratish, kompyuter va internet ma'lumotlaridan foydalanish kabi ish usullari o'quvchilarga tabiiy yaratilgan nutq, vaziyatlari orqali chet tili o'rgatishga keng imkoniyatlar ochmokka.

ADABIYOTLAR:

1. Siddiqova I.A. Metodika prepodovaniya angliyskogo yazyka. T. 2002 .
2. Расулов В.К. англиз тилини ўргатиш методикаси. Т. 1998.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EKSPRESSIVLIKNI IFODA ETUVCHI
SO‘ZLARNING ETIMOLOGIYASI

Mahmudova Zulxumor Rahmatullayevna

Andijon mashinasozlik instituti, akademik litseyi ingliz tili fani o‘qituvchisi.

KIRISH

Hozirgi kunda tilshunoslik sohasida ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilib, uning etarlicha ochib berilmagan qirralarini tadqiq etish rivojlanib bormoqda. Erkalash mavzusi ham shu kabi tilshunoslikning echim talab qiluvchi masalalaridan biridir. Mazkur mavzu bo‘yicha ko‘pgina olimlar tadqiqot olib borganlar (X. Samigova, U. Tursunov, A. Muxtorov, X. Abduraxmonov, N. Asqarova, A. M. Xamroev, E. Qilichev va boshqalar). Lekin, ingliz va o‘zbek tillarida erkalashni ifodalovchi so‘zlarning etimologik xususiyatlarining tahliliga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot mavjud emas. Erkalash atamasiga tilshunos olimlar turlicha izohlaganlar.

Erkalash bu har bir tilning o‘ziga xos vositalari, shakl–usullari orqali odamlarga, jonivorlarga, tabiatga, narsa-hodisalarga nisbatan mehribonlik, muhabbat, mayinlik, nazokat, nafis mehr bilan suyish, mehr-shafqat ko‘rsatish, hamdardlik, hamfikrlik va boshqa munosabatlarni ifodalaydi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi tadqiq etilayotgan tillarda erkalashni ifodalovchi so‘zlarning etimologik xususiyatlarini o‘rganishdir.

F. De Sossyur tashqi va ichki lingvistikani qarama-qarshi qo‘yadi. Uningcha, tashqi va ichki tilshunoslik tilning xalq tarixi, geografik joylashishi bilan bog‘lab tekshirilishi lozimdir [3, 90-91].

Tillarning ichki rivojlanishi ichki va tashqi qonuniyatlarga bo‘ysunadi, ya‘ni o‘zaro hamkorlik jarayonida tillar taraqqiyoti ichki qonunlar ta‘sirida emas, balki tashqi ta‘siriga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishini mazkur mamlakatlarda yashovchi halq va elatning madaniyatini bir-biriga yaqinlashuviga shart-sharoitlar yaratib beradi. Tillar ham bir-biriga ta‘sir ko‘rsatib boyib boradi; bunday hamkorlik tillarning ichki rivojlanishiga ham sabab bo‘ladi [1, 157].

Tilni ijtimoiy jihatdan o‘rganishda uning tarixiy bosqichlarining turli davrlarda rivojlanishi nuqtai nazaridan ham taxlil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek xalqlarining tarixi hamda chegaradosh xalqlarning ularning tiliga ta‘siri o‘z navbatida erkalashni ifoda etilishida ham ahamiyat kasb etishi aniqlandi. SHu fikrga ko‘ra, erkalash ma‘nosini ifoda etuvchi so‘zlar quyidagicha guruhlandi: chetdan o‘zlashtirilgan so‘z va affikslar orqali yasalgan hamda tarixiylik jihatlariga doir erkalash ma‘nosini ifoda etuvchi so‘zlar.

Ingliz tiliga zamon taqozosi bilan ispan, italyan, fransuz, ivrit va rus tillaridan o‘zlashtirilgan suffikslar ishtirokidagi so‘zlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Masalan, ispan tilidan -o (kidd-o, buddy-o, daddy-o, boy-o) kabi, italyan tilidan -ola, -ino, -arino, -erino kabi, fransuz tilidan -ese, -ois, -ais, -ville kabilar, ispan amerika variantlari, ya’ni -aro, -eroo, roo, -oo (nigerro, sleeperro) ko‘rinishlar hamda ivrit va rus tillaridan o‘zlashgan -ink (beachnik, bootnik, autabeatnik) cuffikslari ingliz tili so‘zlariga qo‘shilib ifoda etiladi [2, 85-87].

Tadqiqotimiz natijalari aynan chetdan o‘zlashtirilgan so‘zlar va suffikslar o‘rganilayotgan tillarda erkalash ma’nosini hosil bo‘lishida o‘z ta’sirini ko‘rsatganligini ko‘rsatdi. Masalan, Vebster izohli lug‘atining ma’lumot berishicha [7], ingliz tiliga fransuz tilidan minion, beau, belle, ispan tilidan caballerro, italyan tilidan nymph, courtesan, muggle, cicibeo, charlatan, Inamorato, inamorata, arab tilidan esa peri, sheik kabi erkalash ma’nosini ifoda etuvchi so‘zlar kirib kelganligini ko‘rsatadi. Misollar keltirib o‘tamiz:

“You,” he informs her softly, “are whatever I say you are. You’re mine Sweetheart, you better start getting used to that.”

“No...” she whispers in protest, but she stops struggling against him.

“If I say so, then you’re my minion. You could be my mistress, or my acolyte.” [8].

Oltingugurtdan foydalanish va tabiiy agregatlarni texnogen sanoat chiqindilari bilan almashtirish imkoniyati ko'p hollarda portlandsement bog'lovchisi asosidagi betonlardan kam bo'lmagan arzon va yuqori samarali betonlar va mahsulotlarni olish imkonini beradi va nafaqat yo'l, muhandislik inshootlari qurilishida, balki, turar-joy va jamoat binolarini qurilish amaliyotida keng qo'llanilish xajmini oshiradi. Xulosa. Bugungi kunda oltingugurt tarkibli betondan faqatgina radiatsiya ta'sir etuvchi inshootlarda to'suvchi konstruksiya sifatida, yo'l qoplamalarida, muhandislik va gidrotexnika inshootlarini barpo etishda qo'llanilmoqda. Oltingugurt tarkibli betonning mavjud kamchiliklarini bartaraf etish, yangi turdagi kimyoviy qo'shimchalaryordamida uning yonuvchanlik xossasini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonida ekologiyava inson salomatligiga uning ta'sirini kamaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni yaratish, bino va inshootlarning konstruktiv elementlarida keng foydalanish kelajakdagi muxim vazifalardandir. Kamchiliklari bartaraf etilgan materialdanorayopma va tomyopma plitalari, temir-beton qoziqlar, poydevor bloklari kabi turli konstruktiv elementlar ishlab chiqarish uchun ham foydalanish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. PNST105-2016. Oltingugurtli beton va oltingugurtli beton aralashmalari. Texnik shartlar.
2. Maksim Abaev Sera: chiqindilardan kelajak materialiga. Ilm va hayot. 2020 URL: <https://www.nkj.ru/archive/articles/39381/>
3. S.A. Xolmirzayev, Sh.R. Yusupov, M.B. Muhitdinov. Modifikatsiyalangan betonning fizik-mexanik xossalarini o'rganish. 2021 yil 11-13 noyabr Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya. Namangan shahri.
4. Roman Fediuk, Y. H. Mugahed Amran, Mohammad Ali Mosaberpanah. Oltingugurtga asoslangan betonning xususiyatlari va qo'llanilishi bo'yicha tanqidiy sharh. 2020 yil.
5. Qo'rg'oshin beton: afzalliklari va kamchiliklari. 2020

OLTINGUGURTNING KIMYOVIY XOSSALARI

Davurov Ikrom Hasan o'g'li
SamDAQU Magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oltingugurtning kimyoviy xossalari, tarqalishi hamda uning alohida xususiyatlari muhokama etiladi hamda birikmalar ko'rib chiqiladi.


Kalit so'zlar: oltingugurtbeton, element, birikma, massa, xossa.

KIRISH

Oltingugurt (Sulfur), S - Mendeleyev davriy sistemasining VI guruhiga mansub kimyoviy element. Tartib rakami 16, atom massasi 32,064. Tabiiy Oltingugurt 4 ta barkaror izotop ^{32}S , ^{33}S , ^{34}S , ^{36}S dan iborat. Sun'iy radioaktiv izotoplari ^{31}S , ^{35}S , ^{37}S ham olingan. Yer po'stining massa jihatdan 5410~2% ini tashkil qiladi. Dengiz suvida 0,08—0,09% Oltingugurt bor. Tabiatda erkin (tug'ma Oltingugurt) va birikmalar holida uchraydi.

KIRISH

Oltingugurtning eng muhim tabiiy birikmalari metall sulfidlari, mas, FeS_2 — temir kolchedan (pirit), ZnS — aldama pyx, PbS — qo'rg'oshin yaltirog'i yoki glenit, Cu_2S — mis yaltirog'i va h.k. Oltingugurt sulfatlar holida (angidrit CaSO_4 gips $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$, og'ir shpat BaSO_4 , glau-ber tuzi va q.k.) ham uchraydi. Bundan tashqari, Oltingugurt kumir, slanets, neft, tabiiy gazlar, hayvon va o'simlik organizmlarida organik va anorganik birikmalar xrlida mavjud. Mas, oqsilda 0,8—2,4% Oltingugurt bor. Tug'ma Oltingugurt Meksika, AQSH, Italiya, Yaponiya, MDH mamla-katlarida bir necha allotropik ko'rinishlarda uchraydi. Ulardan muhimlari romb va monoklin singoniyali Oltingugurtdir. Romb panjarali Oltingugurt sariqtusli, zichligi $2,07 \text{ g/sm}^3$ (20°da), suyuqlanish temperaturasi $112,8^\circ$, qaynash temperaturasi 445° . Sakkiz burchakli halqasimon Sg tarkibli molekulalardan tuzilgan. Monoklin Oltingugurt prizma shaklidagi tiniq kristallardan iborat, zichligi $1,96 \text{ g/sm}^3$, suyuqlanish temperaturasi $118,9^\circ$. Oltingugurt qizdirilsa, $112,8^\circ$ da erib, sariq tusli harakatchan suyuqlikka aylanadi. 160°da qo'ng'ir tusga kirib, qovushoq bo'lib qoladi. Oltingugurt metalloidlar jumlasiga kiradi. U inert gazlar, azot, yod, platina, oltina&n tashqari deyarli barcha elementlar bilan birikadi. Kis-lorodda 250°da , qavoda 360° da alanganadi.



3. $4S + 6NaOH(kons.) = Na_2SO_3S + 2Na_2S + 3H_2O$ (qayn., Na_2SO_3 qushimchasi),

$4S + 4(NH_3 \cdot H_2O)[kons., issiq] = (NH_4)_2SO_3S + 2NH_4S + H_2O$.

4. $S + H_2 = H_2S$ (150 – 200 °C).

5. $S + O_2 = SO_2$ (280 – 360 °C, xavoda yonishi, SO_3 qushimchasi).

Birikmalari. Oltinugurtning xalq xujaligida eng kup ishlatiladigan birikmalardan biri vadarod sulfididir. Tabiatda vadarod sulfid mineral suvlar va vulqon gazlari tarkibida uchraydi.

H_2S -Vadarod sulfide. Monosulfon sulfonlar H_2S_n ($n=1-8$) gomologik qatorning birinchi vakili rangsiz gaz, termik beqaror. Sovuq suvda yaxshi eriydi, kuchsiz kislota. Tingan eritma ($\approx 0,1M$) vadarod sulfidli suv deb nomlanadi xavoda kup turganda loyqalanadi (ingibetor – saxoroza). Ishqorlar bilan netrallanadi. Kuchli qaytaruvchi oksidlovchi kislotalar galogenlar kislarod tipik oksidlovchilar, oltinugurt dioksid bilan xamda almashinish reaksiyalariga kirishadi. Olinishi: : $118^{3,4}$, $138^{4,6,11}$, $139^{4,5}$, $172^{1,2}$, $412^{4,11}$, 415^{14} , 424^{18} , 836^2 ga qarang.

$Mr = 34,08$; $\rho = 1,539$ г/л (H.Ш.); $t_{\text{суюк}} = -85,54$ °C; $t_{\text{кайн}} = -60,35$ °C;

$k_s = 0,71^{(0)}$, $0,39^{(20)}$, $0,14^{(80)}$;

$v_s = 467^{(0)}$, $258,2^{(20)}$; $91,7^{(80)}$; $K_c^{(-70)} = 1 \cdot 10^{-33}$

1. $H_2S = H_2 + S$ (400 – 1700 °C).

2. $8H_2S \cdot 46H_2O_{(к)}(kilatrat.) = 8H_2S + 46H_2O$ ($t > 0$ °C). 3. $H_2S + H_2O \rightleftharpoons HS^- + H_3O^+$; $pK_k = 6,98$,

$HS^- + H_2O \rightleftharpoons S^{2-} + H_3O^+$; $pK_k = 12,91$.

4. $H_2S + H_2SO_4(kons.) = S \downarrow + SO_2 \uparrow + 2H_2O$ (20 °C),

$H_2S + 3H_2SO_4(kons.) = 4SO_2 \uparrow + 4H_2O$ (qayn.).

5. $H_2S(\text{to'yingan}) + 2HNO_3(kons., sovuq) = S \downarrow + 2NO_2 \uparrow + 2H_2O$,

$H_2S + 8HNO_3(kons.) = H_2SO_4 + 8NO_2 \uparrow + 4H_2O$ (qayn.). 6. $H_2S + NaOH(\text{suyul.}) = NaHS + H_2O$,

$H_2S + 2NaOH(kons.) = Na_2S + 2H_2O$.

7. $H_2S(\text{tuyingan}) + NH_3 \cdot H_2O = NH_4HS + H_2O$.

8. $H_2S + 2NH_3(c) = (NH_4)_2S$ (– 40 °C).

9. $2H_2S(\text{tuyingan}) + O_2 = 2S \downarrow + 2H_2O$ (yorug'likda),

$2H_2S + 3O_2 = 2SO_2 + 2H_2O$ (250 – 300 °C, xavoda yonishi).

10. $H_2S + 4Cl_2 + 4H_2O = H_2SO_4 + 8HCl$.

H_2S_n -polisulfonlar

Polisulfonlar H_2S_n ($n=2-8$) aralashmasi sariq (yashil tusli) qovushqoq suyuqlik ($\approx 1,7^{(20)}$). H_2S_n aralashmasi suvni eritmaydi va uzi ham suvda erimaydi (qatlamlarga ajraladi). Barcha H_2S_n lar quydagi zanjir tuzulishiga $HS(S_{n-2})SH$ ega. Tuyingan eritmasi beqaror (ingibetor HCl). Oksidlovchi kislotalar bilan birikadi ishqorlar tasirida parchalanadi. Quyipolisulfonlar oltinugurtni yaxshi eritadi (yuqori H_2S_n lar xosil

bulmaydi). Olinishi: polisulfonlar aralashmasi 41^3 ga qarang; toza $H_2S_n(n=2-4)-414^2$ yuqori $H_2S_n-413^{21}$; 414^8 ga qarang.

H_2S_2 : $Mr = 66,15$; $d = 1,334^{(20)}$; $t_{\text{суюк}} = -89,6^\circ\text{C}$; $t_{\text{кайн}} +70,7^\circ\text{C}$;

H_2S_3 : $Mr = 98,21$; $d = 1,491^{(20)}$; $t_{\text{суюк}} = -54^\circ\text{C}$ $t_{\text{кайн}} = +69^\circ\text{C}$ (вак.);

H_2S_4 : $Mr = 130,28$; $d = 1,582^{(20)}$; $t_{\text{суюк}} = -85^\circ\text{C}$;

H_2S_5 : $Mr = 162,35$; $d = 1,644^{(20)}$; $t_{\text{суюк}} = -50^\circ\text{C}$;

H_2S_6 : $Mr = 194,41$; $d = 1,688^{(20)}$;

H_2S_7 : $Mr = 226,48$; $d = 1,721^{(20)}$;

H_2S_8 : $Mr = 258,54$; $d = 1,747^{(20)}$.

1. $H_2S_{n(c)} \xrightarrow{\tau} H_2S + H_2S_{2n-1}$.

2. Kreking: $H_2S_n = H_2S_{n-m} + mS$ (qizdirilganda).

Misillar: $H_2S_n = H_2S_4 + (n-4)S$ (75°C);

$H_2S_n = H_2S_2 + (n-2)S$ (110°C);

$H_2S_n = H_2S_3 + (n-3)S$ (125°C);

$2H_2S_3 = H_2S_2 + H_2S + 3S$ ($t > 140^\circ\text{C}$).

3. $H_2S_{n(эп)} \xrightarrow{\tau} H_2S \uparrow + (n-1)S \downarrow$.

NaHSO₃-natriy gedro sulfat

Oq qizdirilganda parchalanadi suvda yaxshi eriydi, nosimetrik shakildagi HSO₃-anionning qaytar protolizi xisobiga kislatalar tasirida parchalanadi ishqorlar bilan netrallanadi. Tipik qaytaruvchi xavo kislarodi bilan osson oksidlanadi. . Олиниши: 28^{19} , 30^6 , 416^9 га қаранг.

$Mr = 104,06$; $d = 1,48$;

$k_s = 57,5^{(30)}$.

1. $2NaHSO_3 = Na_2SO_3 + SO_2 + H_2O$ ($t > 25^\circ\text{C}$).

2. $NaHSO_4(\text{suyul.}) + 4H_2O = [Na(H_2O)_4]^+ + HSO_3^-$,
 $HSO_3^- \rightleftharpoons H^+ + SO_3^{2-}$, $HSO_3^- + H_2O \rightleftharpoons H_3O^+ + SO_3^{2-}$; $pK_k = 7,20$.

3. $2NaHSO_3(\text{to'yingan}) = Na_2S_2O_5 + H_2O$ (SO_2 atmosferasida).

4. $NaHSO_3 + HCl(\text{suyul.}) = NaCl + SO_2 \uparrow + H_2O$.

5. $NaHSO_3 + H_2SO_4(\text{kons., sovuq}) = NaHSO_4 + SO_2 \uparrow + H_2O$.

6. $NaHSO_3 + NaOH(\text{kons.}) = Na_2SO_3 + H_2O$.

7. $4NaHSO_3 + O_2(\text{xavo}) = 2Na_2SO_4 + 2SO_2 + 2H_2O$.

8. $4NaHSO_3 + 2NaHS = 3Na_2SO_3S + 3H_2O$ (qayn.).

9. $10NaHSO_3 + H_2SO_4(\text{suyul.}) + 4KMnO_4 = 5Na_2SO_4 + 4MnSO_4 + 6H_2O + 2K_2S$

10. $4NaHSO_3 \rightarrow Na_2S_2O_4(\text{ккатот}) + O_2 \uparrow(\text{анод}) + 2H_2$ (sovuqda).

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Michael E. and et all. Atomic weights of the elements 2011 (IUPAC Technical Report) (англ.) // Pure and Applied Chemistry. -2013. Vol. 85, no.5.P. 1047-1078. doi:10.1351/PAC-REP-13-03-02
2. Ijen Volcano: sulphur mine workers of Indonesia. www.news.com.au. Дата обращения: 5 марта 2019.
3. South African sulphur fre (англ.).Refdoc.Дата обращен

ВЕШЕНКА ЕТИШТИРИШДА ИНОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ИШЛАБ ЧИҚИШ

Бердикулов Х., Бердикулова Н.

Жиззах давлат педагогока университети

E-mail: berdikulovk@list.ru

Аннотация: В статье изучено искусственно выращивание грибов, и может быть использовано при культивировании съедобных высших базидиальных грибов, в частности вешенка. Способ выращивания грибов включает приготовление и термообработку лигноцеллюлозных отходов сельского хозяйства и лесопереработки, внесение мицелия и формирование грибных блоков.

Ключевые слова: базидиальный гриби, инокуляция, вешенка, мицелий, термообработка.

Abstract: The article studies the artificial cultivation of mushrooms, and can be used in the cultivation of edible higher basidial mushrooms, in particular oyster mushrooms. The method of growing mushrooms includes the preparation and heat treatment of lignocellulose waste from agriculture and timber processing, the introduction of mycelium and the formation of mushroom blocks.

Keywords: basidial fungus, inoculation, oyster mushroom, mycelium, heat treatment.

XXI аср техника асри бўлибгина қолмай ер куррасида аҳоли сони ортиб бориши билан ҳам характерланади. Ортиб бораётган аҳолининг озиқ-овқат, кийим кечак ва бошқа эҳтиёж маҳсулотларига бўлган талаби ҳам ортиб бормоқда.

Аҳолининг озиқ-овқатга бўлган эҳтиёжини самарали қондиришда арзон ва сифатли маҳсулотлар билан тامينлаш асосий масалалардан бири ҳисобланади.

Сунний озиқ-овқат маҳсулотларига қараганда табиий озиқ-овқат маҳсулотларининг қиймати ва самараси инсон саломатлиги учун қулай ва сифатлидир. Енг арзон ва сифатли қўзқорин маҳсулотларининг бири бу Вешенка туркумига мансуб қўзқоринлардир.

Вешенка қўзқорини жуда технологик, юқори ўсиш суръатларига ва ташқи микрофлорага нисбатан сезиларли рақобатбардошликка эга қўзқоринлардан биридир. Вешенка туридаги қўзқоринлар оқсилга бойлиги жихатидан гўшт маҳсулотлари даражасига тенглашади, витаминлар ва пантотеник кислота микдори бўйича эса сабзавот, мева, гўшт, сут ва балиқдан юқори ўринга эга .

Витаминлар миқдори бўйича оксилга бой қўзиқорин гўшт маҳсулотлари даражасида, пантотеник кислота миқдори бўйича эса сабзавот, мева, гўшт, сут ва балиқдан юқори. Биотин миқдори бўйича вешенка қўзиқорини бу витамин таркибидаги энг бой таомлардан бири ҳисобланади (8-76 микрограмм 100 г). Вешенкада В гуруҳи витаминларининг бутун мажмуаси бор ва унинг таркибида В₆ витамини (пиридоксин) балиқ ва сабзавотларга қараганда кўпроқ. Вешенка қўзиқоринлари витамин РР таркибига кўра йетиштирилган қўзиқоринлар орасида тенги йўқ, бу қон айланишини яхшилади, қон томирларида қон томирларни шаклланишига тўсқинлик қилади ва жигар ва ошқозон фаолиятини яхшилади. Вешенка қўзиқоринларида санаб ўтилган витаминларга қўшимча равишда С, Д, Е витаминлари мавжуд.

Сўнги 2 йил ичида дунё бўйича қўзиқорин ишлаб чиқариш тезлашди, вешенкага бўлган талаб тақлифлар сезиларли даражада ошиб бормоқда. Охириги йилларда қўзиқорин ишлаб чиқариш кўрсаткичи Россияда 100 минг тонна, АҚШ 167 минг т. Хитойда 400 минг тоннадан ортиб бормоқда. Жаҳонда 2020 йилда 2019 йилга нисбатан қўзиқорин ишлаб чиқариш эса 10 миллион тоннадан ошган.

Агар ривожланган мамлакатларда йиллик қўзиқорин истеъмоли бир кишига тўрт килограммни ташкил этса СНГ давлатларида, 220 грамми ташкил этмоқда. Турли ўсма рақ касаликларига чалинганлар сони СНГ давлатларида юқорилигича қолишини ҳам кўришимиз мумкин. Бу маълумот тахлили бўйича айтишимиз мумкинки қўзиқориннинг антиоксидантлик хусусияти ўсма рақ касаликларига чалинишни ҳам олдини олади.



1 расм. Вешенка инокуляциядан сўнг



2 расм. Иккинчи бор субстратда вешенка ўсиш

Вешенка туридаги қўзиқоринга талаб ортиб бораётган бир пайтда уни янги биотехнологияларда ишлаб чиқариш муҳим аҳамият касб этади. Бизнинг тадқиқотларимизда вешенка инокуляция жараёнида доимий микроклимни таъминлаш учун ҳарорат 23-26 0С ва ҳаводаги оптимал карбонат ангидрид миқдорини СаО билан 0,06 % камайтиришга эришилди. Култивация ва инокуляция тадбирлари пайтида ушбу параметрлар сезиларли даражада

ўзгариши вешенка ўсиш жараёнига таъсири ўрганилди. Кўзиқоринларни ўстирадиган хонада вентиляция ёзда совутиш учун кондиционер ва қишда иситиш тизимлари ўрнатилди. Вешенка инокуляциядан сўнг ўсиши учун 25-28 градус ҳарорат сақланишига эришилди. Вешенка кўзиқоринлари нисбий намлик, ёруғлик ва ҳароратнинг ўзгариши каби параметрларга жуда сезгир бўлмаганлиги сабабли, бу кўзиқоринларни етиштиришга қисқа муддатда эришилди. Шу жihatлари билан вешенка етиштиришда кам харажатли техникаларни талаб қилинади. Хонани ёзда совутишга кондиционер ва қишда исиклик учун печлар ва турли датчиклар бўлса вешенка туридаги кўзиқоринларга ажойиб иқлимий шароитни яратиб кўп миқдорда ҳосил олиш имконияти катта. Агар шу шароитсиз биз оддий хонада ҳам баҳор ва куз бошида ўстиришимиз мумкин. Осиёнинг иссиқ ёзи ва суронли қишда мавсумларида бу маҳсулотни кўзиқорин етиштириш учун махсус шароит қилинса, вешенкадан йил бўйи тўрт фаслда ҳам юқори ҳосил олинади.

Ушбу маҳсулот етиштатишни ошириш орқали аҳолининг шу турдаги озиқ-овқатга бўлган талаби қондирилишига эришилади ва шу билан биргаликда вешенка истемол қилган инсонлар организмида зарур бўлган макро ва микроэлементларга талаби қондирилади, рак касаликлари камайиши ҳам кузатилади..

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Babieva I.P. Xamirturush biologiyasi / I.P. Babeva, I. Yu. Chernov. M.: KMK ilmiy nashrlari, 2004.
2. Barsukova T.N. Botanika bo'yicha kichik seminar / T.N. Barsukova, G.A. Belyakov, V.P. Proxorov, K.L. Tarasov. M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2005.
3. Belyakova G.A. Botanika: 4 jildda V. 1. Yosunlar va qo'ziqorinlar / G. A. Belyakova, Yu.T. Dyakov, K.L. Tarasov. M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2006.
4. Belyakova G.A. Botanika: 4 jildda V. 2. Yosunlar va qo'ziqorinlar / G. A. Belyakova, Yu.T. Dyakov, K.L. Tarasov. M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2006.
5. Bilay V.I. Umumiy mikologiya asoslari / V.I. Beelai. Kiev: Vishcha maktabi, 1989

JIZZAX VILOYATIDA UCHRAYDIGAN INULA HELENIUM TURINING XO‘JALIK AHAMIYATI

Berdikulov X., Berdikulova N.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

E-mail: berdikulovk@list.ru

Inula L. - **Asteraceae L.** oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik, balandligi 150-160 sm, qalin, kalta, etdor, ko‘p boshli ildizpoyaga ega, ulardan bir nechta qo‘shimcha ildizlar tarqaladi. Poyasi tik turuvchi, chiziq-chizikli, kalta, zich, oq tuklar bilan tuklangan, yuqori qismida qisqa shoxlangan. Barglari ketma-ket, yirik, notekis tishsimon, tashqi tomoni biroz burushgan, ostida kulrang yumshoq tuklangan. Gullarining diametri 7,8-8,3 sm bo‘lgan to‘pgul (savatchalar) ichida to‘plangan, asosiy poya va novdalarning yuqori qismida savatchalari zich bo‘lmagan ro‘vak yoki qalqonchani hosil qiladi. Gullari oltinsimon sariq, xira oq rangli, tukli popugi bor. Mevasi 4-5 mm uzunlikdagi to‘rt qirrali qo‘ng‘irrang pistachalardan iborat bo‘lib, uning popugi pistachaga nisbatan ikki baravar uzun.

Inula L. turlari dasht zonasida, quyi va o‘rta tog‘ mintaqalarida tarqalgan. Butazorlarda va baland bo‘yli o‘tloqlarda o‘sadi. U ko‘pincha nam joylarda - daryolar, ko‘llar, tog‘ irmoqlari bo‘ylarida, yer osti suvlari oqib chiqadigan joylarda uchraydi.

O‘zbekistonda yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarga dorivor, bo‘yoqbob, asalchil, yem- xashak va oziqabop xom ashyo sifatida ehtiyoj katta. O‘simliklardan oqilona foydalanmaslik natijasida qizilmiya, andiz, zirk butasi, sariqchoy, chirmovgul, efedra, kovrak va boshqa o‘simlik turlari zahiralari keskin kamayishiga sabab bo‘lmoqda.

Asteraceae L. oilaga mansub xalq tabobati va rasmiy tibbiyotda keng qo‘llanib kelinayotgan dorivor o‘simliklardan biri qora andiz - **Inula helenium** hisoblanadi. **Inula helenium** - bu o‘simlik qadim zamonlardan xalq tabobatida foydalanib kelingan. Ushbu turkumning nomlanishi “Inula” grekcha so‘zdan “ineo” - tozalash, “helos” - botqoq o‘simligi, “helios” - quyosh hamda juda chiroyli manzarali o‘simlik degan ma’nolarni bildiradi. **Inula helenium** qadim zamonlarda xalq tabobatida 9 ta dardga davo ekanligi haqida ma’lumotlar mavjud.

Inula helenium o‘simligini Gippokrat asarlarida ham uchratish mumkin. U qadimgi Rim va Gretsiyada faqat kasalliklarni davolashda emas, undan turli ziravorlar sifatida, uning ildizidan murabbo hamda shirinliklar tayyorlashda keng foydalanishgan. O‘rta asrlarda ushbu o‘simlikdan vino va yaxna ichimliklari tayyorlangan.

Ulug‘ hakim Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida ham **Inula helenium** o‘simligidan shamollash, bo‘g‘im og‘riqlarida, ildizini qaynatib uzum qiyomini

aralastirib iste'mol qilish o'pka va yurak kasalliklarida, asal bilan aralastirilgani balg'am ko'chiruvchi sifatida ta'sir etishi to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Undan tashqari ushbu o'simlik bo'g'im og'riganda, siydik haydovchi, isitma tushiruvchi, gijja haydovchi dori sifatida, o'pka sili kasalliklarini davolashda foydalaniladi, bundan tashqari o'simlik qaynatmasi bilan qo'tir va yaralar davolanadi. Abu Ali ibn Sino umuman **Inula helenium** haqida quyidagilarni ham aytib o'tgan: "Andiz inson organizmining ish faoliyatini tetiklashtiradi, yurak quvvatini mustahkamlaydigan malham, bosh og'riqni davolaydigan, qurtlarni tushiradigan eng kuchli dori-darmondur" andiz ildiz va ildiz poyasidan qarilik va juda charchash tufayli kishilarda ro'y beradigan skreoz xastaligini, bronxial astma, ziqqinafasni, jigar, bavoil hamda me'da ichak yo'li tizimidagi yuqumli kasalliklarni, qand kasalligi, tuz to'planishi, temiratki, tish milklari shamollashi va jarohatlarni davolashda qo'llanilishi haqida ma'lumotlar qoldirgan. U eng to'yimli ozuqa ham hisoblanadi. Chorva mollari, ayniqsa ot o'simlikni yaxshi yeydi. Shuning uchun bo'lsa kerak xalq orasida "andizli joyda ot o'lmas" degan maqol ham bor.

Xalq tibbiyotida qora andiz bilan birga - **Inula grandis** Schrenk, tol bargli andiz - **Inula salicina** L, chachalbosh - **Inula Britannica** L. turlari ham yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarda ishlatiladi.

Inula helenium ildiz poyasining tarkibida 1-3 % efir moylari, saponinlar, smola, shilimshiq va achchiq moddalar shu bilan birga ildiz moylarining asosini alantolaktonlar, izoalantolaktonlar, fitomilan va boshqa atsetilen birikmalari, inulin va psevdoinulin uchraydi va quyida keltirilgan kasalliklarni davolashda foydalaniladi.

Inula helenium o'simligining ildiz va ildiz poyalaridan olingan preparatlar rasmiy tibbiyot tomonidan o'tkir va surunkali nafas olish kasalliklari, grippni qo'zg'atuvchilarga qarshi dezinfektsiyalash vositasi sifatida ishlatiladi. **Inula helenium** ning ildiz va ildiz poyalaridan oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakning yaralarini davolashda ishlatiladigan "Alanton" preparati olingan. Preparat yaraga qarshi, yallig'lanishga qarshi, kapillyarlarni mustahkamlovchi, mikroblarga qarshi, o'sma kasalliklari va radiatsiyaga qarshi ta'sirga ega.

Alantolakton antigelmintik ta'sirga ega. Dorivor o'simlikdan uning alohida qismlaridagina emas, balki kompkks holda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. **Inula helenium** ildiz va ildiz poyalari, farmakopeya xom ashyosi ham hisoblanadi. So'nggi yillarda andiz populyatsiyasining kuchli antropogen ta'siri tufayli, baland bo'yli andiz sezilarli darajada kamayishni boshlagan, chunki ushbu turni ruhsatsiz va nazoratsiz yig'ish hollari tez-tez uchrayotganligi turning butunlay yo'q bo'lib ketishiga olib kdishi mumkin. **Inula helenium** ning bioekologik xususiyatlari, tarqalishi, fitotsenotik ahamiyati o'rganilmaganligi ushbu turni bioekologiyasini o'rganishni taqozo etadi. **Inula helenium** ning patogen mikroorganizmlarga nisbatan antimikrobial ta'sir ko'rsatganligi isbotlangan, bu esa yangi veterenariya preparatlarini

ishlab chiqishda yaxshi natijalarga erish mumkinligini ko'rsatadi. **Inula helenium** ning yuqori darajadagi dorivor xom ashyo qismlari ildiz poyalari va ildizlari bo'lib, ular yallig'lanishga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi va "Alanton" preparatini olishda foydalaniladi.

Inula helenium ning ildiz tizimidan aminokislotalar, sakkizta seskviterpenli laktonlar gullaridan ajratib olingan. Ular orasida, izoalantolakton va santamarin gi^kologik saraton hujayralariga qarshi muhim ingibitiv faollikni ko'rsatadigan moddalar hisoblanadi.

Inula helenium o'simligi tarkibidagi alantolakton, izoalantolakton saratonni oldini oluvchi vosita sifatida qo'llanilgan.

Shuningdek, **Inula helenium** turining ildiz ekstrakti, biologik faol moddalarning boy manbai, xususan, inulin, polisaxarid, fruktooligosaxaridlar, flavanoidlar mavjud.

Inula helenium o'simligi Xitoy, Mo'g'uliston, Hindiston, Bolgariya, Tibet xalq tabobatida qo'llaniladi.

Xalq tabobatida mikroblarga qarshi faolligi bilan **Inula helenium** ildiz va ildiz poyasi ba'zi bir gramm musbat va gramm-manfiy ba^tiya^r hamda mikroblarga qarshi faol ekanligi aniqlangan.

A. Akmuradov (2013) keltirilishicha **Inula helenium** ning ildiz poyasi sil, oshqozon-ichak kasalliklarida, diuretik va antigementik vosita sifatida ishlatiladi. Undan tashqari nafas yo'llarining yallig'lanishi, bronxit uchun ekspektoran sifatida, damlamalari - o'pka sil kasalligi, oshqozon yarasini davolashda o'simlik ildizi asosida tayyorlangan dorilar buyuriladi.

Inula helenium ildizi va ildizpoyasi tarkibida organik moddalar, mitral tuzlar, vitamin S, 44 % inulin, psevdoinulin, oz miqdorda alkaloid, 6 % oshlovchi moddalar, organik kislotalar hamda 0,3-1,7 % efir moyi mavjud, efir moyining asosini gakinin, laktonlardan alantolakton, izoalantolakton hamda alantokislotalar tashkil etadi. Bargida achchiq moddalardan alantotsikrin bo'lib, u o'zining ta'sirchanligi jihatidan pikrotoksin va sikutotoksin moddalaridan qolishmaydi. Qand aralastirib pishirilgan ildiz va ildizpoyalar xorijiy mamlakatlardan olinayotgan imbir xom ashyosining o'rnini bosa oladi. Andizlarning ildizidan texnik spirt ham olish mumkin.

V.V. Sergeeva, I.Yu. Chernogorets (2018) keltirishicha, **Inula helenium** qandli diabet kasalligida, nafas olish yo'llari, ovqat hazm qilish organlari kasalliklarini davolashda, bronxit, qalin viskoz balg'am sekretsiyasi ko'paygan, yo'talish, gastrit, jigar va o't yo'llari kasalliklarini davolashda keng ishlatiladi.

Inula helenium ildiz va ildiz poyasi tarkibidagi gelinin moddalari ba^nal floraning rivojlanish xususiyatlarini kamaytirganligi sababli terini va mushak qavatini dezinfektsiyalashda qo'llaniladi. **Inula helenium** rasmiy tibbiyotda, oziq-ovqat sanoatida va ozuqa ishlab chiqarishda ishlatiladigan istiqbolli o'simlik bo'lgani uchun,

tabiiy populyatsiyalarini o'rganish, ko'paytirish, iqtisodiy xususiyatlarni saqlab qolish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Холматов Х.,Х., Пратов У.П. Махсумов М.Н. Асоратсиз дори-дармонлар. - Тошкент. "Укитувчи". 2006. -Б. 45-46.
2. Хожиматов ^., Оллоёров М. Узбекистоннинг шифобахш усимликлари ва уларни мухофаза этиш. -Тошкент. "Фан нашриёти". 1988. -Б 15-17.
3. Холматов Х.,Х., ^осимов А.И. Доривор усимликлар. -Тошкент. "Ибн Сино". 1994. - Б.259-260.
4. Хамидов А., Набиев М., Одилов Т. Узбекистон усимликлари аниклагичи. - Тошкент. «Укитувчи» нашриёти», 1987 й. -Б.283-284.

УДК 598.293.1(575.1)

ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИДА ГҮНГ ҚАРҒА (*CORVUS FRUGILEGUS*)НИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА УЯ БИОЛОГИЯСИ

Бердикулов Х., Бердикулова Н.

Жиззах давлат педагогока университети

E-mail: berdikulovk@list.ru

Аннотация: В Джиззакском обласи размеры колонии грачи было разным: в самой маленькой колонии 89 гнезд, в крупных 389 гнезд и во всех колониях 2656 (в среднем 204,3). Гнездо грачи распологались на тополя - 48,6%, карагаче - 31,2%, платане - 11,2%, грецкий орех - 4,5%, иве - 3% и 1,5% в ясене. Грач питают различными насекомыми, дождевой червы, личинки жуки и бабочки, зерна и семенами сорных трав.

Гўнг қарғалар полапонларини ҳар хил ҳашаротлар, ёмғир чувалчанги, қўнғиз личинкалари, капалак куртлари, буғдой, ёввойи ўсимликларнинг уруғи билан озиқлантириши кузатилди.

Республикамизда Corvidae оиласига мансуб 11 тур мавжуд. Улардан гўнг қарға *Corvus frugilegus* кўп сонли, колониал уяловчи тур ҳисобланади. Ушбу турни бошқа қарғалардан тумшуғи асосидаги оқ-кулранг терисини яққол кўриниши ва патларини бронза рангида товланиши билан ажратилади.

Мамлакатимизда гўнг қарғани ўтроқ ҳолда учровчи гурухлари куйи Амадарё районларида уялаши илк маротоба учратилган. Кейинчалик Республиканинг марказий, жанубий ва шимоли-шарқий районларига кириб борганлиги кузатилган. Бугунги кунда ушбу турни ўтроқ яшовчи популяцияси шаклланган бўлиб, оммавий тур ҳисобланади. Қиш мавсумида Европанинг жануби, Россия ва Қозоғистон каби мамлакатлардан қишлаш мақсадида учиб келган қушлар ҳисобига тур сони ортиши кузатилади.

Қуйидаги маълумотлар гўнг қарғанинг экологияси, биологияси ва қишлоқ-хўжалигидаги аҳамиятини баҳолаш мақсадида 2018-2019 йиллар қиш, баҳор мавсумида Жиззах вилояти худудидан дала тадқиқотлари жараёнида йиғилди. Гўнг қарға колонияси мавжуд 13 та дарахтзор стационар сифатида танлаб олинди. Қушлар сонини аниқлашда маршрут методидан фойдаланилди (Кашкаров, 1927).

Жиззах шаҳри дарахтзорларида гўнг қарғани асосан қишлашда (декабрь-январ) учраши кузатилади. Туновчи қушларни тонг отиши билан озиқланиш мақсадида шаҳарни тарк этиши асосан шаҳар атрофидаги ахлатхоналарда ва агроландшафт минтақасида озиқланиб тунда яна шаҳарга қайтиши кузатилди.

Февралнинг биринчи ярмида туновчи қушлар сонини кескин камайиши кузатилди.

Жиззах вилояти ҳудудида қайд этилган 13 колониядаги уялар сони қиш мавсумида қушлар уяларни эгаллашидан олдин, 2018 йил ноябр, декабр ойлари давомида саналди.

Заргар ва Кўкгумбаз қишлоғини кесиб ўтувчи асосий транспорт йўли ёқасидаги дарахтзорда 368, Қоратош қишлоғи ҳудудида 376, Жиззах-Самарқанд йўналишидаги М-39 магистрал автомобил йўлининг 1031-32 км ва 1047-48 километр оралиғидаги йўл бўйлаб жойлашган қайрағочларда 2 та колонияларда 478 (89,389), Сарбозор МФЙ ҳудудида 145, Хонимқўрғон қишлоғида 110, Обуз қишлоғида 109, Гулистон қишлоғида 165, Ғаллаорол тумани Қўриқ қишлоғида 113, Жума ҚФЙдан Пояриқ туманига ўтувчи транспорт йўли ёқасида 380 ва Гулистон ҚФЙ Абдукарим қишлоғида 120 уядан иборат гўнг қарға колониялари мавжудлиги қайд этилди. Фориш тумани тоғ олди минтақаси Нарвон қишлоғида 166, Кўса қишлоғида 126 уядан иборат гўнг қарға колониялари мавжудлиги қайд этилди.

Бундан ярим аср муқаддам Зарафшон водийсидаги энг йирик колонияларда 154 (ўртача 52) тага қадар уя бўлиши адабиётларда келтирилган (Бакаев, 1995).

Биз ўрганган колонияларнинг катталиги турлича бўлиб, энг кичик колонияда 89 уя, йирик колонияда 389 та, (ўртача 204,3) барча колонияларда 2656 уя мавжудлиги, аниқланди. Адабиёт маълумотлари билан таққосланганда бугунги кунда қушнинг сони 4 маротобага ошганлиги намоён бўлади. Тадқиқот ҳудудида қушлар уяларини 48,6% теракда, 31,2% қайрағочда, 11,2% чинорда, 4,5% грек ёнғоғида, 3% шумтолда ва 1,5% заранг дарахтларида жойлаштирган.

Тошкент вилоятида бир туп чинор дарахтида 39 тагача гўнг қарға уя қуриши қайд этилган (Е.Н Лановенко., Э.Ш Шерназаров ва б; 2012). Жиззах вилоятида бир туп терак ва қайрағочда шаклига боғлиқ ҳолда 1 тадан 12 тагача уя ўрнатилганлиги учратилди. Сершоҳ дарахтларда жойлаштирилган уялар бирига нисбатдан горизонтал, аксинча теракда вертикал (устма-уст) ҳолатда эканлиги аниқланди.

Қушлар уясини асосан 60% терак ва чинор каби дарахтларнинг 8-12 метрдан баланд бўлган қисмида жойлаштиради.

Гўнг қарға уясининг диаметри 23-67 см, баландлиги 24-69 см, лотка диаметри 15-23 см, чуқурлиги 7,5-13 см бўлади. Уя асосан дарахт ва буталарнинг 8-47 см бўлган майда шохларидан ясаиб, ичига ўтларни майин пояси, хайвон жуни, қуш патлари, селофан, латта ва барглари тўшайди. Ишлатилган уяларни асосан ички қисми қайта қурилади.

Ҳароратга боғлиқ ҳолда март ойида тухум қўйиш бошланади. С.Б Бақоев (1995) маълумотларига қараганда қуйи Зорафшон воҳасида гўнг қарғалар 15 мартда биринчи тухумни қўйиши аниқланган. Жиззах вилоятида 2019 йил 1 мартда биринчи тухум қўйганлиги, 14-17 мартдан бошлаб ёппасига тухум қўйиш бошланиши кузатилди. ўрганилган 64 уяда қушлар 2 тадан 6 гача (ўртача 3,6) тухум қўйиши, фақат бир уяда 1 тухум қўйилганлиги аниқланди. Тухумлар кўк-яшил тусда бўлиб, ҳар хил катталиқдаги қўнғир, кулранг, жигарранг ҳамда яшил доғлари мавжуд. Морфометрик ўлчами 37,1-41,0x26,3-28,3 мм га тенг. Тухум сариқлиги 12-20% ташкил этади. Гўнг қарғалар биринчи тухумни қўйиши билан уни инкубацияси бошланиши сабабли уяда полапонлар ёши ҳар хил бўлади. Тухумларни асосан урғочи қушлар босиб ётиши, эркаклари уядан узоқ бўлмаган масофада жойлашган агроландшафт ерлари ва табиий биотоплардан ҳашаротларни турли гуруҳ вакиллари билан озиқланиши ҳамда урғочисига озиқа ташиши аниқланди.

Колонияларда кеч жуфтлашган қушлар томонидан бўш инларни эгалланиши ёки янгисини қуриб тухум қўйиш ҳолати 29 апрелда ҳам кузатилмоқда.

Уя биологиясини ўрганиш мақсадида белгиланган 64 уяда 23 апрелга қадар 70 дан ортиқ полапон тухумдан чиққанлиги аниқланди. Гўнг қарға жиш бола очувчи қуш бўлиб полапонларини кўзи, эшитиш тешиги юмиқ, танаси яланғоч, қонотлари усти ва елкасида тўқ-куклранг тусдаги эмбрионал парлар бўлади.

Гўнг қарғалар полапонларини ҳар хил ҳашаротлар, ёмғир чувалчанги, қўнғиз личинкалари, капалак қуртлари, буғдой, ёввойи ўсимликларнинг уруғи билан озиқлантириши қишлоқ хўжалиги учун аҳамиятли. Бироқ баҳорда униб чиқаётган маккажўхори, нўхат ва лоя каби маданий ўсимликларга шикаст етказади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Кашкаров Д.Н. Метод количественного изучения фауны позвоночных и анализ полученных данных. // Тр. Средно Азиатского государственного университета, 1927. сер. VIII – а, зоол; Вып. 1. – С. 24.
2. Лановенко Е.Н., Шерназаров Э.Ш., Филатова Е.А., Филатов А.К., Азимов Н.Н. О расширении ареала и росте численности грача в Узбекистана // Орнитологический вестник Казахстана и Средней Азии Выпуск 1. Алматы-2012. С. 164-170.
3. Бакаев С.Б. Грач. Птицы Узбекистана. Т.3. Ташкент, 1995. С. 146-152.

MATEMATIKA FANINING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI VA UNI O‘QITISHDA TURLI XIL YONDASHUVLAR

Urolov Eldorbek Solijon O‘g‘li

Andijon mashinasozlik instituti, akademik litseyi

Matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematikaning inson hayotidagi o‘rni va uni o‘qitishda turlicha yondashuvlar, matematika ta‘limining maqsad va vazifalari, matematika ta‘limini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, matematikaning o‘quv-metodik ta‘minotini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: matematik, kompetentsiya yondashuvi, o‘quv-uslubiy yordam, asosiy kompetentsiya.

KIRISH:

Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, u tevarak-atrofdagi hodisa va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda, ishlab chiqarish, fan-texnika, texnika taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Matematik ta‘limga kompetentsiya yondashuvi o‘quvchilar tomonidan jamiyatdagi kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda duch keladigan vaziyatlarda samarali harakat qilish imkonini beradigan turli ko‘nikmalarni egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaga asoslangan yondashuvda matematik ta‘limning asosi amaliy, amaliy yo‘nalishlarni mustahkamlashga qaratilgan.

Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va kichik o‘quv tadqiqotlarini yakunlash orqali o‘quvchilarning umumta‘lim fanlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish maqsadida fan o‘quv dasturlariga amaliy mashg‘ulotlar hamda amalga oshirish va loyiha ishlari kiritildi. Bu holat aniq bir o‘quv predmetini o‘zlashtirish sifatini oshirish bilan birga fanning fanlararo va kundalik hayot bilan bog‘lanishiga keng imkoniyatlar ochadi va ta‘lim samaradorligini oshiradi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODIKASI:

Matematika darslarini tashkil etishda nazariyaga qaraganda amaliyotga ko‘proq e‘tibor berish va o‘quvchilarni tayyor o‘quv materiallari bilan ta‘minlashga asoslangan yondashuvdan ma‘lum darajada voz kechish zarur. Matematika darslarida keys, tadqiqot, loyiha, kichik o‘quv kashfiyoti kabi interfaol usullardan ko‘proq foydalanish tavsiya etiladi.

O‘quvchilarda kichik tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o‘lchash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanish zarur. Talabalarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash malakalarini egallash ham

muhimdir. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan bir qatorda asosiy kompetensiyalar ham shakllantirilishi belgilangan. Aniq fanlar blokidagi fanlar orqali o'quvchilarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirish va ularda egallagan ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda qo'llay olishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

NATIJALAR:

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi, dunyoning globallasuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi odamlarning dunyoqarashini, muvaffaqiyatga erishish yo'llarini, inson salohiyatini, qobiliyatini, ijodkorligini o'zgartirib, jamiyatning asosiy kapitali bo'lib xizmat qilmoqda.

Bunda har bir o'quvchi shaxsini jamiyatda jamiyatda raqobatbardosh bo'lish, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslashuvchan, faol, ijtimoiy yetuk salohiyatli, yuksak bilim sohibi, aqliy qobiliyatli komil shaxsni shakllantirishdir. ma'naviy tarbiyalash esa davlatimiz oldidagi vazifalardan biridir.

Matematika o'qitishning asosiy vazifalari:

- o'quvchilarning matematik tushunchalar, xossalari, shakllar, usullar va algoritmlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashini ta'minlash; matematika fanining inson kamoloti va ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tushunish, matematik bilim va ko'nikmalarni kundalik hayotda muvaffaqiyatli qo'llash, o'rganishga o'rgatish;

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quvchilarda fanlar uzviylikini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ijodkorlikni shakllantirish, ularni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

- matematikani nazariy o'qitishga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechish va o'quvchilarni tayyor o'quv materiallari bilan ta'minlash, o'quvchida matematik bilimlarni kundalik hayotda qo'llash, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga erishish, ko'nikmalarni namoyon etish va faollashtirish.

Maktabda matematika ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqish maktab o'qituvchilarining salohiyati, kasbiy mahorati va ijodkorligiga bevosita bog'liq. Binobarin, matematika o'qituvchilarining malakasini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim metod va texnologiyalari bilan jihozlash matematika ta'limi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnika taraqqiyoti, o'zgarib borayotgan dunyoda yosh avlodning raqobatbardoshligi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lim tizimiga xalqaro tajriba va modellarni joriy etish, ta'lim tizimiga xalqaro tajriba va namunalarni joriy etishni, o'zgarayotgan dunyoda ilm-fanni mukammal egallashni taqozo etadi.

MUHOKAMA:

Matematika faniga qiziqish uyg`otish o`qitish uslubining yuksak saviyasiga, o`quv-tarbiya ishlarining qanchalik mahorat bilan qurilganligiga bog`liq. Har bir o`quvchi darsda faol bo`lishi, zavq bilan ishlashi va bilimga bo`lgan ishtiyoqning paydo bo`lishi va rivojlanishidan boshlang`ich nuqta sifatida foydalanishi, bilimga bo`lgan qiziqishini chuqurlashtirishga e`tibor qaratishi kerak. Bu, ayniqsa, o`smirlarning u yoki bu fanga bo`lgan doimiy qiziqishi va qiziqishini, uni qayta shakllantirganda aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vaqtda matematikani tezda qo`llash kerak.

Yoshlarga matematika fanini o`rgatish uchun o`qituvchi ushbu fanlarni yaxshi bilishi, o`qitish usullaridan mohirona foydalana olishi zarur. Shu bilan birga pedagogika, psixologiya va boshqa fanlardan chuqur bilimga ega bo`lish zarur. Treningning asosiy maqsadi talabalarning intellektual qobiliyatlarini, mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko`nikmalarini rivojlantirish, zarur bilimlarni egallashdan iborat.

XULOSA:

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, matematika darslarida o`rganiladigan har bir matematik xulosa qat`iylikni talab qiladi, bu esa o`z navbatida ko`plab matematik tushunchalar va qonunlar bilan ifodalanadi. O`quvchilarning bu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o`rganishi jarayonida ularning mantiqiy tafakkuri rivojlanadi, matematik xulosalar chiqarish madaniyati shakllanadi.

Matematikaga qiziqish uyg`otish o`qitish metodikasi sifati va o`quv faoliyati darajasiga bog`liq. Har bir o`quvchi darsda faol va zavq bilan ishlashi, bilimga bo`lgan ishtiyoqning paydo bo`lishi va rivojlanishidan boshlang`ich nuqta sifatida foydalanishi, o`rganishga qiziqishini chuqurlashtirishga e`tiborini qaratishi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Alixonov S. "Matematika o`qitish metodikasi". T., "O`qituvchi" 1992 yil.
2. Kollogarov A. N. "Algebra va analiz asoslari. – T.: "O`qituvchi". 1992 yil.
3. Azlarov T. Monsurov X. "Matematik tahlil" – T.: "O`qituvchi". 2001 yil.
4. Galitskiy M.A. va boshqalar "Algebra va matematik analiz kursini chuqur o`rganish" T., "O`qituvchi", 1995 y.
5. Sirojiddinov S.H., Mirzaahmedov M.A. Matematika kasbi haqida suhbatlar. T., "O`qituvchi", 1993 y.

MATEMATIKA DARSLARINI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO`LLASH

Mamajonov Farxodbek Ibrohimovich

Andijon mashinasozlik instituti, akademik litseyi

Matematika fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari xususida so`z yuritiladi.

Kalit sozlar: maktab, ta`lim-tarbiya, interfaol, oqituvchi, oquvchi, ma`naviy-ahloqiy tarbiya dars, metod.

Bugungi kunda mamlakatimizda bo`layotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta`lim-tarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar “Milliy dastur”imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun oqituvchisini yanada ko`proq mehnat qilishga, izlanishga da`vat etmoqda. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo`lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o`rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko`lamini hosil qilish, ma`naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta`limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog`liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug` ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog`liqdir.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust) da qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyatini to`laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o`zida ta`lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko`tarish, jahon ta`limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim. Bunda uzluksiz ta`lim tizimi xodimlari, pedagog-o`qituvchilar tomonidan zamonaviy ta`lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta`lim jarayonida samarali qo`llay olishlari, shuningdek, ta`lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi. O`qituvchilarning matematika fanlarini o`qitishda yo`naltirilgan darslar jarayonini noan`anaviy shakllarda tashkil etish, ta`lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko`nikmalariga ega bo`lishi ta`lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o`zlashtirilishi, ularda amaliy ko`nikma va malakalarning hosil bo`lishining kafolati bo`la oladi. Ta`lim

jarayoni o'quv materialini mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi o'quvchilar tomonidan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish darajasi bilan belgilanadi.

Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada matematika darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol metodlar haqida so'z boradi.

Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda ma'lum faoliya yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuv talab etadi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada kata tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Ta'limni isloh qilinishi jarayonining ajralmas, muhim qismi hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar ta'lim jarayoniga o'zlari bilmagan holda qiziqishi bilan kirishib ketadilar. Tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy interfaol strategiyalar bo'lga bilimlarni samarali o'zlashtiradi. Chunki bugun sinflarni to'ldirib o'tirgan o'quvchilar sho'x beg'ubor bolalik gashtini surayotgan, ba'zan xayolparast bolalardir. Ular orasida hatto 45 daqiqalik dars jarayonining nihoyasini intiqlik bilan kutib, ta'limga yuzaki qaraydigan o'quvchilar ham yo'q emas. Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda. Buning samarasi o'quvchilar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi. Aynan darsning shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining

mavzusi borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, o'quvchilar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilinadi. Dars mashg'uloti uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. O'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi dars jarayonini samarali, qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qila olish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish, hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (1999 yil 16 avgust) //Xalq ta'limi j. 1999. № 5
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
3. Tolipov O'. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan". 2005.
4. Sherqulov. M . Ma'ruza matni dan, Toshkent: 2012.
5. Karimov I.A. "Barkamol avlod O'zbyekiston taraqqiyotining poydevori" Toshkent "Sharq" 1997 yil.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkyent "Manaviyat" 2008 yil.
7. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Toshkyent "Manaviyat" 2008 yil.

KECHPISHAR QOVUN NAVLARINI YETISHTIRISH, QURITISH VA QOQI QILISH TEXNOLOGIYASI

Urganch Davlat Univeersiteti Kimyoviy Texnologiyalar Fakulteti

Oziq ovqat texnologiyalar kafedrası Prof.: Kurambaev Sh.R

Kafedra mudiri: Ibadullaev B.M

Magistrant: Xujayeva M.A

Annotatsiya: Maqolada qovun navlari, suvga bo'lgan talabi, yig'ish tartibi, kasalliklarga chidamliligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlari: qovun navi, uni yig'ishtirish tartibi, suvga talabchanligi, chidamliligi.

Annotation: Melon varieties, demand for water, collection procedure, yield.

Keywords: Melon varieties, the order of its collection, water requirements, collection.

Аннотация: Сорты дыни, потребность в воде, способ сбора, устойчивость к болезням.

Ключевые слова: Дыня, способы его сбора, потребность в воде, долговечность.

Bugungi kunda butun dunyoda turli xil qovun navlari yetishtirilib, muvaffaqiyatli yetishtirilmoqda. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, ushbu madaniyat namunalari to'plami 3 mingdan oshadi va ularning aksariyati ovqatlanadigan navlarga tegishli.

Masalan Torpedo navi

Bu o'zbek navi qovunlarning kechpishar navlariga mansub bo'lib, ular taxminan 100-110 kun pishadi.. Turning asosiy xususiyatlariga 15-17 kg gacha o'sadigan pishgan mevalarning vazni kiradi.

Ananas navi

Seleksionerlar bu navni issiq iqlim sharoitida ekish uchun maxsus etishtirishgan. Ananas sovuqqa chidamliligi bilan farq qilmaydi, shuning uchun bog'bonlar uni issiqxonalarda o'stiradilar. Boshqa ko'plab qovunlar singari, ananas oval va uzun mevalarga ega, ularning massasi 2-3 kg Ananasning o'ziga xos xususiyatlari uning yoqimli shirin ta'mi va xushbo'y hidi bilan pushti ichki qismini o'z ichiga oladi. Qovunlarning bu gibridd navi keng tarqalgan kasalliklarning patogenlari bilan yaxshi kurashadi. Shu sababli, o'simlik kamdan-kam hollarda kulrang chirish va kech blightdan aziyat chekadi. Qishlash navi

Qishlash navi deganda 90-95 kun ichida pishadigan mashhur kechpishar qovunlar tushuniladi. Optimal sharoitlarda mevaning vazni taxminan 2-3 kg ni tashkil qiladi.

Oltin navi

Ushbu navni yig'ish birinchi kurtaklar paydo bo'lganidan keyin 100 kundan kechiktirmay amalga oshiriladi. Bunday poliz ekinlari universal hisoblanadi, chunki ular ochiq havoda va issiqxonalarda etishtirish uchun mos keladi. Oltin navning ijobiy tomonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: hasharotlarga qarshi immunitet; harorat o'zgarishiga qarshilik.

Kamalak navi

Bu qovun navi ertapishar o'simlik sifatida tasniflanadi, uning hosili 35-45 kun davomida pishadi. Xilma-xillikning afzalligi uning oddiyligi bo'lib, u hatto unumsiz tuproqlarda ham yaxshi hosil olish imkonini beradi.

Kazak

Bu qovunning o'rtacha pishish davri 70-80 kun. o'simlik ob-havo sharoitlarining keskin o'zgarishi bilan yaxshi kurashmaydi. Sifatli hosilni olish uchun biz butalar ekishimiz kerak bo'ladi.

Parvarishlash.

Qovun urug'i nam tuproqqa ekilsa nihollar unib chiqquncha sug'orish talab etilmaydi. Qovun ekinini asosiy parvarishlash ishlari o'simliklarni yagonalash, tuproqni yumshatish, ekinni oziqlantirish, chopiq qilish, sug'orish, palaklarni to'g'rilash, begona o'tlar va zararkunandalarga qarshi kurashishni o'z ichiga oladi.

Yagonalash ikki bosqichda: birinchisi o'simlik chinbarg chiqarganda va birinchi chopiq vaktida o'tkaziladi. Nihollar yalpi unib chiqishi bilan bir qatorda oralarini yumshatishga kirishiladi. Nihollar unib chiqqandan 20-25 kun o'tgach, ya'ni ularda ikkita-uchta chinbarg paydo bo'lganidan keyin ekin birinchi marta chopiq qilinadi, dastlabki suv beriladi, oziqlantiriladi. Ikkinchi chopiq birinchisidan 25-30 kundan keyin o'tkaziladi. O'suv davrida qator oralari 4-5 marta chopiq qilinadi. Qovunning o'ziga xos xususiyati shundaki, uni qisqa vaqt ichida ham yangi saqlab bo'lmaydi. Ammo bu quritilgan qovunning foydalari haqida Injil davridan ma'lum. Quritilgan tilim tayyorlash uchun barcha navlar mos emas. Buning uchun qattiq go'sht va xushbo'y hid bilan farq qiladigan ba'zi navlardan foydalaning. Masalan Ananas va Tarpedo

Qovunni quritish

